2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 108 (1169), 2024-yil 2-iyun, yakshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

BUXORONING KATTA IQTISODIY SALOHIYATINI TO‘LIQ ISHGA SOLISH ORQALI ODAMLARGA MUNOSIB SHAROIT YARATIB, XALQNI ROZI QILISH – ASOSIY VAZIFA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 31-may – 1-iyun kunlari Buxoro viloyatida bo‘ldi.

Tashrifning ikkinchi kuni G‘ijduvon tumanida Buxoro viloyatini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo‘yicha yig‘ilish bo‘lib o‘tdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev so‘zining boshida hududdagi o‘zgarishlarni qayd etdi.

So‘nggi yillarda viloyat iqtisodiyoti 1,5 barobar o‘sib, 53 trillion so‘mdan oshgan, aholi jon boshiga 26 million so‘mni tashkil etgan. Sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatishda 4 ming 600 ta korxona tashkil etilib, 90 mingta ish o‘rni yaratilgan. Eksport 215 million dollarga yetgan. Qorako‘l, Jondor, Shofirkon va Kogon tumanlarining har birida sanoat hajmi yiliga 1 trillion so‘mdan oshgan.

— Iqtisodiyotni izchil rivojlantirib, yana ish joylari ochish, yoshlarni bilimli va kasbli qilish bo‘yicha hali ko‘p ishlash kerak. “Oyog‘imiz ostida” imkoniyatlar turibdi. Ulardan foydalanib, 544 ta mahalladagi 2 milliondan ziyod aholining sharoitini yanada yaxshilash zarur. Buning uchun har bir tizim har kuni mehnat qilishi, izlanishi kerak, — dedi Prezident.

Ishsiz, kam daromadli va chet elda qiyinchilikka uchragan odamlarga munosib sharoit yaratib, ishli qilish hokimlar va sektor rahbarlari uchun strategik vazifa ekani ta’kidlandi.

Shu bois, Buxoroda bu yil kichik biznesga 5,9 trillion so‘mga qo‘shimcha yana 2,1 trillion so‘m kredit berilishi aytildi. Buxorodagi kichik biznes, turizm va servis uchun yana 100 million dollar alohida ajratiladi. Bular orqali iyun-dekabr oylarida 78 ming aholining bandligini ta’minlash mumkin.

Odamlarni ishli qiladigan katta imkoniyat sanoat zonalarida. Kogon tumanida ming gektarda yirik sanoat majmuasi barpo etilmoqda. Birinchi bosqichda 300 million dollarlik loyiha amalga oshiriladi. Bu viloyat iqtisodiyotiga yiliga 250 million dollar qo‘shilgan qiymat, 2 mingta ish o‘rni, 250 milliard so‘m soliq tushumi va 100 million dollar eksport beradi.

Elektr texnikasi tarmog‘ida bu yil Buxoro shahri va Qorovulbozorda 50 million dollarlik 3 ta yirik quvvat ishga tushadi. Temir-beton mahsulotlari chiqaradigan zavod quriladi. Buxoroning tarixiy qismida zargarlik markazi tashkil etiladi.

Investitsiya loyihalari infratuzilmasiga 200 milliard so‘m ajratilishi belgilandi. Natijada 405 million dollarlik 5 ta loyihaning ishga tushishi tezlashadi.

Masalan, Buxoro tumanidagi neft-kimyo klasterida benzol, olefin, aromatik uglevodorod, naftadan pentan va geksan eritgichlari ishlab chiqariladi. 4,5 trillion so‘mlik qo‘shilgan qiymat, 130 million dollar eksport tushumi va 600 ta yuqori daromadli ish o‘rni ochiladi.

Viloyat sanoat korxonalarining kooperatsiya xaridlaridagi o‘rni kamligi ko‘rsatib o‘tildi. Mutasaddilarga ishlab chiqaruvchilarning davlat xaridlaridagi ishtirokini kengaytirish bo‘yicha topshiriq berildi. Shu maqsadda Kooperatsiya portalida haqiqiy ishlab chiqaruvchilar qatnashadigan tartib qilinib, korxonalar reyestri va yillik quvvati yangilab boriladi.

Buxoroda yiliga 5 million xorijiy sayyohni jalb etish uchun sharoit yaratilmoqda. Shahar markazida Boqiy Buxoro madaniy etnografik parki va yangi aeroport qurilishi boshlandi. Shu bilan birga, viloyatdagi 30 ta tarixiy yodgorlikni ta’mirlash bo‘yicha ko‘rsatma berildi. Zarafshon daryosi bo‘yida sayilgoh tashkil qilish, To‘dako‘l suv havzasi bo‘yida dam olish maskanlarini ko‘paytirish zarurligi aytildi.

Hukumatga ulug‘ ajdodlarimiz boy merosini chuqur o‘rganish, obidalar atrofida turizm kontentini ko‘paytirish bo‘yicha dastur ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi.

Qishloq xo‘jaligida ham foydalanilmagan imkoniyatlar ko‘p. Viloyatda ip-kalavaning 57 foizi mato qilinyapti, qolgani xomashyo shaklida 4 barobar arzon sotilyapti. Yoki viloyatda 1 million 200 ming tonna meva-sabzavot yetishtirilsa-da, eksporti ko‘p emas. Sababi — meva-sabzavotlarni sotish joylari hal qilinmagan, ularni qadoqlash tizimi yo‘q.

Qorako‘l erkin iqtisodiy zonasining 30 gektarida texnopark tashkil qilib, mazkur tarmoqlardagi korxonalarni joylashtirish bo‘yicha ko‘rsatma berildi. Xususan, binolar aralash gazlama va bo‘yoq xonaga moslab quriladi, chet ellik va mahalliy hamkorlarga qulay shartlarda tayyor holda topshiriladi. Bu bir yilda to‘liq qayta ishlash tizimiga o‘tib, eksportni ikki barobar oshirishga turtki beradi.

Rossiyaning Nijegorod viloyati va Penza shahrida Buxoro viloyatining bozorlari barpo etiladi.

Irrigatsiya masalalariga to‘xtalinar ekan, viloyatda suv yetkazish xarajatining 87 foizi elektr energiyasiga to‘g‘ri kelayotgani qayd etildi. Nasoslar energotejamkoriga almashtirilsa, yiliga kamida 400 milliard so‘mni iqtisod qilish mumkinligi aytildi.

Davlatimiz rahbari yig‘ilish G‘ijduvon tumanida bo‘layotganiga e’tibor qaratib, g‘ijduvonliklarning ishbilarmonligini ta’kidladi. So‘nggi yillarda tuman sanoati 2 karra o‘sib, 2 trillion so‘mdan oshgan. Shu vaqtda 2 mingdan ziyod yangi tadbirkor ish boshlagan. Bu sur’atni davom ettirgan holda tadbirkorlarni eksportga yo‘naltirish, xonadonlardagi kichik ishlab chiqarishlarni “soyadan” chiqarish, yoshlarga kasb o‘rgatish, zamonaviy shifoxona qurish vazifalari belgilandi.

G‘ijduvonlik tadbirkorlar 10-11-sinf o‘quvchilari va kollej talabalariga darsdan so‘ng kasb o‘rgatib, 2 million so‘mgacha oylik to‘lash, bepul tushlik va tekin avtobus bilan ta’minlash taklifini bildirgan. Prezident bu taklifni ma’qullab, xayrli tajribaga aylantirish kerakligini ta’kidladi. Umuman, G‘ijduvonning o‘zida 25 ming ish o‘rni, qo‘shimcha 50 million dollar eksport imkoniyati borligi ko‘rsatib o‘tildi.

Yig‘ilishda hokimlar va sektor rahbarlarining axboroti, tadbirkorlarning takliflari eshitildi.

Shundan so‘ng Prezident Shavkat Mirziyoyev “G‘ijduvon ipak tola” korxonasi faoliyati bilan tanishdi.

Mamlakatimiz ipak sanoatida ham klaster tizimi joriy etildi. Jumladan, 74 ta pilla-ipakchilik klasteri va 11 ta urug‘chilik korxonasi tashkil qilindi. Tut maydonlari 40 ming gektardan 55 ming gektarga kengaydi. Bularning natijasida pilla yetishtirish hajmi 2,5 barobar, ipak mahsuloti eksporti 3 barobar ko‘paydi.

“G‘ijduvon ipak tola”da ham klaster tizimi yo‘lga qo‘yilib, yiliga 48 tonna xom ipak va 28 tonna ipak momig‘i ishlab chiqarish quvvati yaratilgan. Unga G‘ijduvon va Shofirkon tumanlari biriktirilgan bo‘lib, ozuqa bazasi uchun o‘tgan yili 2 million 300 ming tup tut ko‘chatlari ekilgan. Ikki tumanda 28 ming nafar aholi ish bilan ta’minlangan.

Korxonada pilla xomashyosi to‘liq qayta ishlanadi. Joriy yil ikki marta hosil olinib, 842 tonna pilla xomashyosi yetishtirildi. Bu 104 milliard so‘mlik mahsulot ishlab chiqarish hamda 4 million dollardan ziyod eksport qilish imkonini beradi.

Davlatimiz rahbari pilla qurtxonasi va hosilini ko‘zdan kechirdi. Pilla genetikasini rivojlantirib, sifat toifasini oshirish, klasterlar faoliyatiga ilmni olib kirish zarurligini ta’kidladi. Namunali klasterlarda boshqa pillakorlarni o‘qitib, ilg‘or texnologiyalarni ommalashtirish bo‘yicha ko‘rsatma berildi.

Shu bilan Prezident Shavkat Mirziyoyevning Buxoro viloyatiga tashrifi yakunlandi.

O‘zA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

INSON QADRI UCHUN

IJTIMOIY DAVLAT MAQOMI MAS’ULIYATI

Nogironligi bor shaxslarning huquq va manfaatlari qanday ta’minlanyapti?

Ertalab ishga shoshib kelayotib ba’zida yo‘lda ko‘zi ojiz yoki tayanch-harakat tizimi muammosi tufayli hassaga tayanib ketayotgan yoxud aravachada harakatlanayotganlarni uchratamiz. Ko‘p hollarda yonida hamrohi bo‘ladi, ba’zida manzil sari yolg‘iz ketayotganlarni ham ko‘ramiz. Shunda insoniylik nuqtayi nazaridan ularga hamrohlik qilib uzog‘ini yaqinlashtirishga chog‘lanamiz: aravachasini avtobusga chiqarish yoki tushirish, yo‘llardan o‘tish, metroga tushishda ko‘mak bergan bo‘lamiz. Shu bilan ularning oldida burchimizni bajargandek his qilib, ko‘nglimiz biroz taskin topadi va yo‘limizda davom etamiz.

Aslida, nogironligi bo‘lgan shaxslarga shu e’tiborimiz yetarlimi yoki ularga achinish hissi bilan yondashish to‘g‘rimi? Bundaylar jamiyatning sog‘lom a’zolari bilan bir safda, orzu-niyati, intilishlarini ro‘yobga chiqarish imkoniga ega bo‘lishi uchun zimmamizda yana qanday burch va vazifalar bor? Bu savollar haqida doim ham o‘ylab ko‘ravermaymiz. Ammo bugun nogironligi bor shaxslarning ijtimoiy-iqtisodiy muhofazasi bilan bog‘liq jarayonlar jahon hamjamiyatini tobora ko‘proq tashvishga solayotgani masalaga yangicha nigoh bilan qarashni taqozo etayotir.

Davomi 3-betda

Millat fidoyilari

Jadid o‘giti: “YURT OBRO‘SIN YOSHLAR SAQLAR”

Mamlakatimiz texnik jihatdan tartibga solish tizimi iqtisodiyotimiz barqarorligi, yetkazib berilayotgan mahsulotlar ishonchliligi, xavfsizligi, foydalanishda qulayligi va sifatini ta’minlashda muhim yo‘nalish o‘laroq zamon talablariga mos rivojlantirilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, dunyo bozoriga chiqish, eksport geografiyasi va ko‘lamini kengaytirish, yurtdoshlarimizni sifatli va xavfsiz mahsulotlar bilan ta’minlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 2-iyun, 108-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Munosabat

XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQLIK ZARURATI

XALQIMIZNI SIFATLI MAHSULOTLAR BILAN TA’MINLASHDA DAVLAT NAZORATINING AHAMIYATI

Azamat ABDURAHMONOV,
Texnik jihatdan tartibga solish agentligi inspeksiya boshlig‘i

Mamlakatimizda iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash bo‘yicha ko‘rilayotgan tizimli choralar samara bermoqda. Jumladan, Statistika agentligi ma’lumotiga ko‘ra, 2024-yilning birinchi choragida yalpi ichki mahsulot 242,7 trillion so‘mni tashkil etib, 6,2 foiz o‘sgan. Bunda xizmatlar (14,2 foiz), chakana savdo tovar aylanmasi (9,3 foiz), qurilish (6,8 foiz), sanoat mahsulotlari (6,5 foiz) yo‘nalishlari bilan birga eksport hajmi 6,4 milliard dollarga yetib, 10 foiz o‘sish kuzatilgan.

Ikkinchi chorakda barcha yo‘nalishga mos ravishda eksport ko‘lami ham sezilarli ortadi. Chunki, birinchidan, davlat dasturida 2024-yilda yalpi ichki mahsulot o‘sish sur’atini 6 foizdan kam bo‘lmagan, shu jumladan, eksport hajmi o‘sishini 25 foiz darajasida ta’minlash vazifasi belgilangan. Ikkinchidan, ayni paytga kelib, janubiy viloyatlarda pishib yetilgan tarvuz, qovun, gilos, o‘rik kabi mahsulotlarni dunyo bozoriga eksport qilish jarayoni jadal kechmoqda.

Bundan tashqari, may oyining uchinchi o‘n kunligiga kelib, xalqaro birja savdolarida mis kotirovkasi barcha davr uchun yangi maksimum — 11 ming 105 dollarga yetdi. Yil boshidan hisoblaganda mis narxi 27 foiz qimmatladi. O‘zbekiston mis zaxirasi bo‘yicha yetakchi davlatlardan ekani hamda mis qazib olish va qayta ishlash sanoatini rivojlantirishga qaratilgan yirik loyihalar amalga oshirilayotgani, qolaversa, dunyo bozorida elektromobillar va qayta tiklanuvchi energiya manbalariga mos ravishda misga talab tobora ortib borayotgani ham mamlakatimiz eksporti istiqboli bilan bog‘liq yangi imkoniyatlar yaratadi.

Rossiya Prezidentining davlat tashrifi bilan mamlakatimizga kelgani ham bu borada muhim ahamiyatga ega. Binobarin, tashrif doirasida tomonlar yaqin istiqbolda o‘zaro savdo hajmini 30 milliard dollarga yetkazishga kelishib oldi. Bu esa, o‘z navbatida, mamlakatimiz eksport imkoniyatlarini yanada oshiradi.

Mahsulotning turidan qat’i nazar, daromad borasida eng samarali yechim, bu — eksport. Shu bois, mamlakatimizda ushbu jabhani rivojlantirish va har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, jumladan, Jahon savdo tashkilotiga a’zolikni tezlashtirish, Yevropa Ittifoqining maxsus preferensiyalar tizimi GSP+dan samarali foydalanish, MDH davlatlari bilan o‘zaro savdo hajmini oshirish, transport-logistika infratuzilmasini yaxshilash, bojxona ma’muriyatchiligini isloh qilish kabi qator yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Texnik jihatdan tartibga solish tizimi bu borada muhim ahamiyatga ega. Chunki mahsulot tayyorligi, logistika va bojxona shayligi tovarni dunyoning xohlagan bozoriga olib borib sotish mumkinligini anglatmaydi. Eksport jarayoni bilan bog‘liq talablar, xalqaro standartlarga muvofiqlik masalasi bor. Aytaylik, mahsulotingizni Yevropa bozorida sotmoqchi bo‘lsangiz, xaridorlar ushbu mahsulotning xalqaro standartlarga muvofiq yetishtirilgan yoki tayyorlanganiga doir xulosa so‘raydi. Bu kabi masalalar esa bevosita Texnik jihatdan tartibga solish agentligi faoliyati doirasida hal etiladi.

Ayni shu maqsadda agentlik faoliyati samaradorligini oshirishga alohida e’tibor qaratilyapti. Xususan, shu yil 26-fevral kuni texnik jihatdan tartibga solish tizimini isloh qilish bo‘yicha takliflar taqdimotida soha rivojiga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilab berilgan edi.

Avvalo, standartlashtirish sohasini isloh qilish va sohaga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish maqsadida davlatimiz rahbarining 2021-yil iyundagi “Texnik jihatdan tartibga solish sohasida davlat boshqaruvini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi qaroriga binoan Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi negizida Texnik jihatdan tartibga solish agentligi tashkil etildi.

Sohani zamon talabiga mos isloh qilish maqsadida ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida keyingi yillarda 12 mingta standart qabul qilindi, 400 turdagi mahsulotni sinovdan o‘tkazish yo‘lga qo‘yildi. Natijada 40 ta yangi eksport bozoriga chiqildi. Shu bilan birga, oxirgi yetti yilda O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 2,5 barobar oshib, 63 milliard dollarga yetdi. Bu yil ham eksportni 1,5 barobar ko‘paytirib, 25 milliard dollarga yetkazish rejalashtirilgan. Shuningdek, istiqbolda Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish maqsad qilingan.

Taqdimotda agentlikni to‘g‘ridan to‘g‘ri hukumat bo‘ysunuviga o‘tkazish, amaldagi texnik tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish, uning eksportga ko‘maklashish va ichki bozorni sifatsiz tovarlardan himoya qilishdagi ishtirokini mustahkamlash bo‘yicha vazifalar belgilandi. Mazkur vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida davlatimiz rahbarining “Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni hamda “O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Bugun agentlik mazkur huquqiy-me’yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalar doirasida xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar bilan milliy muvofiqlikni baholash, sinov hamda o‘lchash natijalarini eksport bozorlarida tan olish borasida hamkorlikni kengaytirishga intilmoqda. Shuningdek, mahalliy mahsulotlarni ishlab chiqarishda xalqaro standartlar va texnik reglamentlarni joriy etish orqali ularning zamonaviy talablarga muvofiqligini ta’minlash va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish, sifatni boshqarishning zamonaviy tizimlarini, birinchi navbatda, eksport qiluvchi korxonalarda keng joriy etish va mahsulotlarning texnik reglament va standartlashtirishga doir normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini ta’minlash kabi yo‘nalishlarda samarali faoliyat yuritmoqda.

Aholiga sifatli va xavfsiz mahsulotlar yetkazishda davlat nazoratini ta’minlash ham agentlik faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan. Shu maqsadda Texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasi uch yo‘nalishda tizimli ishlarni bajarmoqda.

Birinchi yo‘nalishi — davlat nazorati. Inspeksiya joriy yilning o‘tgan davrida Biznes ombudsmanni xabardor qilgan holda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish, savdo kabi tarmoqlarda faoliyat yuritib kelayotgan 120 dan ortiq tadbirkorlik subyektlarida davlat nazorati o‘tkazdi.

Tekshirilgan mingga yaqin mahsulotdan 85 foizdan ortig‘i markirovka, saqlash sharoiti, davriy sinovlar, sifat ko‘rsatkichi bilan bog‘liq amaldagi texnik reglament va standart talablariga nomuvofiqligi aniqlandi. Bundan tashqari, qariyb 1,9 mingta o‘lchash vositasidan 930 tasi qiyoslanmagan. Qiymati 64,6 milliard so‘mlik mahsulotlar muvofiqlik sertifikatisiz realizatsiya qilingan. Shuningdek, 38 turdagi 366 million so‘mlik mahsulotlar texnik reglament va standart talablarida belgilangan sifat ko‘rsatkichlariga mos emas. Natijada qonunbuzilish holatlari aniqlangan korxonalarning yuzdan ziyod mas’uliga nisbatan ma’muriy huquqbuzarlik bayonnomasi rasmiylashtirildi.

Ikkinchi yo‘nalish — profilaktika. Inspeksiya qonunchilik talablari buzilishining oldini olish maqsadida qurilish yo‘nalishida faoliyat yurituvchi 5,5 mingdan ortiq tadbirkorlik subyektiga ogohlantirish xati va tarqatma materiallar yubordi.

Uchinchi yo‘nalish — sertifikat nazorati. Texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasiga lift va eskalator mahsulotlariga rasmiylashtirgan 70 ga yaqin, kabel, isitish qozoni, radiator, muzlatkich va konditsioner mahsulotlariga rasmiylashtirgan 300 ga yaqin, armatura va metall list mahsulotlariga tayyorlangan 90 ga yaqin ariza bo‘yicha hujjatlar to‘plami kelib tushgan. Hozirgacha ularning asosiy qismi nazoratdan yechildi, kamchilik aniqlanganlari vaqtincha nazoratda qolmoqda.

Mamlakatimiz texnik jihatdan tartibga solish tizimi iqtisodiyotimiz barqarorligi, yetkazib berilayotgan mahsulotlar ishonchliligi, xavfsizligi, foydalanishda qulayligi va sifatini ta’minlashda muhim yo‘nalish o‘laroq zamon talablariga mos rivojlantirilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, dunyo bozoriga chiqish, eksport geografiyasi va ko‘lamini kengaytirish, yurtdoshlarimizni sifatli va xavfsiz mahsulotlar bilan ta’minlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.

Sayxunobod tajribasi

“TO‘RT MUCHAMIZ SOG‘ BO‘LSA,

nima uchun birovning qo‘liga qarab yashashimiz kerak?”

Mirzacho‘lning bugungi qiyofasi tanib bo‘lmas darajada o‘zgardi. Bu yerda ulkan bunyodkorliklar amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning yaqinda Jizzax viloyatiga tashrifi va Sharof Rashidov, Zarbdor tumanlaridagi aholi ro‘zg‘ori, tomorqalardan qanday foydalanayotgani, shu orqali qancha daromad olayotgani bilan qiziqqani ko‘pchilikni o‘ylantirib qo‘ydi: “Ular qilgan ishni nega men qilolmayman?” degan gap ko‘nglidan o‘tdi. Hovlimda issiqxona quraman, tomorqamga ekin ekaman, deganlar ko‘paygandan ko‘paydi.

Ayniqsa, aholi daromadlarini oshirish bo‘yicha Sayxunobod tajribasi bugun yurtimiz mahallalarida ommalashmoqda. Sayxunobod tajribasi asosida har bir mahalladan kambag‘al, daromadi kam oilalar tanlab olinmoqda. Ularga hududlardagi yetakchi tadbirkorlar ko‘magida chorvachilik, parrandachilik, asalarichilik, quyonchilik, baliqchilik kabi tarmoqlar bilan birga tomorqa xo‘jaligini rivojlantirish, shuningdek, uch sotix issiqxona qurishi va bir yilda 50 million so‘mdan oshiq daromad qilishiga imkoniyat yaratilmoqda.

Mahallalarga biriktirilayotgan tijorat banklari mas’ullari joylardagi hokim yordamchilari ko‘magida kam ta’minlangan oilalarga qo‘shimcha daromad manbaini yaratish, tomorqa madaniyatini shakllantirish, sabzavot-poliz mahsulotlari yetishtirishni ko‘paytirish, ko‘chalarni ko‘kalamzorlashtirish va obodonlashtirish, qolaversa, aholiga savdo va boshqa xizmatlar ko‘rsatish, bo‘sh turgan binolardan samarali foydalanish ishlariga shaxsan javobgar hisoblanadi.

Hokim yordamchisi “Bir sotix tomorqadan kamida 1-2 million so‘m daromad” mezoni asosida aholi uchun biznes reja ishlab chiqmoqda. Shuningdek, tumanlarda eksportga ko‘maklashuvchi korxonalar ochilib, ustaviga bir milliard so‘m kiritilayotir. Bir korxona to‘rt ming xonadonga serhosil qovoq, mosh, loviya, rozmarin, brokkoli, timyan urug‘ini yetkazib beradi. Yetishtirilgan hosilni eksportyor sotib oladi.

Sayxunobod tajribasi yerdan yanada samarali foydalanish, dehqonlar uchun bozor topishga ko‘maklashish, tadbirkorlarni sifatli urug‘ bilan ta’minlash, eksportga amaliy yordam berish, yer munosabatlarini shakllantirish kabi muhim islohotlarni o‘z ichiga olgan.

Bog‘bon mahallasi Mirzacho‘l tumani markazidan uncha olis bo‘lmagan hudud. Mahallada Sayxunobod tajribasini ommalashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdik. Mahalla faollari hamrohligida dastlab Olim Qurbonov xonadonida bo‘ldik. Bu oila ham kam daromadlilar ro‘yxatiga kiritilgan.

— To‘rt oila, 13 jon bir joyda yashaymiz, — deydi Olim Qurbonov. — Hokim yordamchisi tavsiyasiga asosan, bizga tomorqa, parrandachilik, chorvachilik yo‘nalishida bankdan 33 million so‘m imtiyozli kredit ajratildi. Uch sotix issiqxona barpo qildik. Bir oy muqaddam unga 1000 tup bodring ekdik. Bir sotixdan o‘rtacha uch tonna hosil oldik. 8000 so‘mdan buyurtmachilarga sotdik. 40-45 kunda yetilgan birinchi hosilning o‘zidan oilamiz 24 million so‘m daromad qildi, hali ham issiqxonada hosil bor. Bodringni peshma-pesh ichki bozorga chiqaryapmiz. Nasib qilsa, yana bodring ekmoqchimiz. Qo‘shimchasiga bankdan inkubator ham berildi. Bir siklda ushbu inkubator 500 ta jo‘ja ochib chiqaradi. Parrandalarimiz sonini ko‘paytirishni ham rejalashtirganmiz. Bir bosh sog‘in sigir berishdi. Undan kuniga 7-8 litr sut sog‘ib olinmoqda. Sutni qo‘shnilarimiz sotib oladi. Ko‘chada bekor o‘tirib, birovlarni g‘iybat qilishga vaqt yo‘q. Oilamizda hammaga vazifalar bo‘lib berilgan. Ertalab barvaqt turib, turmush o‘rtog‘im Hikoyat, o‘g‘illarim Qobil, Obid, Sobit, Asil, kelinlarim Charos, Gulmira, Shohsanam o‘z yumushi bilan mashg‘ul. Kimdir issiqxonada, yana kimdir ochiq tomorqada, chorva, parranda parvarishi bilan band bo‘ladi. Qo‘limiz pul ko‘rdi, ro‘zg‘orimizga baraka kirdi.

Hamdam Aliyev oilasi bankdan 33 million so‘mdan ikki bor kredit oldi. Ikkita 7,5 sotixli issiqxona qurgan tadbirkor biriga pomidor, ikkinchisiga bodring ekib, mo‘l hosil olishga erishdi. Xonadon o‘rtacha bir sotix issiqxonadan olti tonnadan hosil oldi. Bodring buyurtmachilarga kilosi 10 ming so‘mdan, pomidor esa 22 ming so‘mdan sotildi. Birinchi ekilgan hosildan oila o‘rtacha 180 million so‘m daromad oldi. Mahalla yoshlarining o‘n nafari mavsumiy ishlarga jalb etildi. Xonadon ahli har qarich yerdan unumli foydalanmoqda. 2 sotixdan ortiq yerga to‘qsonbosti ekinlar ekildi.

— Tomorqa va issiqxona daromadi hisobidan 45 bosh qoramol sotib oldik, — deydi Hamdam akaning farzandi Lazizjon Aliyev. — Kelajakda naslli chorva mollari bosh sonini ko‘paytirishni niyat qilganmiz.

Tadbirkor Sherali Jo‘rayev hokim yordamchisi tavsiyasiga asosan, bankdan 100 million so‘m imtiyozli kredit olib, 5000 broyler tovuq parvarish qilayotir. Go‘shti uchun boqilayotgan jo‘jalar yetilgach, tadbirkor tayyor mahsulotni tuman markazidagi o‘zining savdo do‘konida sotmoqchi. U rahbarlik qilayotgan tadbirkorlik subyektida beshta yangi ish o‘rni yaratildi.

— Tibbiyot mutaxassislari xulosalariga ko‘ra, kishi sog‘lom bo‘lishi uchun bir yilda o‘rtacha o‘n kilo parranda go‘shti va 121 dona tuxum iste’mol qilishi zarur. Aslida, parranda go‘shti va tuxumi parhez hisoblanib, inson organizmi uchun juda foydali, — deydi o‘z ishining hadisini olgan Sherali.

Dilbar Ernazarovaning asl kasbi hamshiralik. Ayol boshi bilan ikki farzandni ulg‘aytirib, uyli-joyli qilish taqdir taqozosi bilan uning zimmasiga tushdi. Keyingi paytda iqtisodiy jihatdan ancha qiynalib qolgan uy bekasiga kredit ajratilishi turmush tarzini butunlay o‘zgartirib yubordi.

— Dastlab ikki million so‘m kredit olib, tikish-bichish qildim, — deydi Dilbar opa.

Bog‘bon mahallasi Mirzacho‘l tumani markazidan uncha olis bo‘lmagan hudud. Mahallada Sayxunobod tajribasini ommalashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdik.

— Hokim yordamchisining oilamizdagi sharoitlardan xabari bor ekan, bizga har tomonlama ko‘mak berdi. Bankdan kredit olib, quyonchilik bilan shug‘ullanib kelyapmiz. Ayni paytda 150 bosh quyon ko‘paytirib, go‘shti uchun parvarishlayapmiz.

Sayxunobod tajribasi asosida tanlangan Dilbar Ernazarova oilasi bugun qisqa vaqtda kambag‘allikdan qutulib, mahalladagi boshqa oilalarga namuna bo‘layotir.

— Kambag‘alman, deb hokimlikning eshigiga borib yotib olgan odamlarni ko‘rsam, jahlim chiqadi, — deydi Dilbar Ernazarova. — “Shuncha imkoniyatdan hatto keksalar ham foydalanyapti. To‘rt muchamiz sog‘ bo‘lsa, nima uchun birovning qo‘liga qarab yashashimiz kerak?!” deyman ularga.

Mahalladagi tashrif buyurgan navbatdagi xonadonimiz sohibi Azimjon Azizov qirq bir yoshda. U xususiy tadbirkor bo‘lgunga qadar ko‘p qiyinchiliklarni boshidan o‘tkazdi. Hatto xorijda ham ishlab keldi, ammo biri ikki bo‘lmadi. Turmush o‘rtog‘i Gulbahorxon ikkalasi bamaslahat rejalar tuzishdi. Yaxshi yashash uchun nima qilish kerak?

Tuya sutining shifobaxsh ekani azaldan ma’lum. Shuning uchun bir bosh tuya sotib oldi. Uning sutini izlab kelganlarga berdi. Tuya juda barakali jonivor ekan. Keyingi yetti yilda tuyalar bosh soni o‘n uchtaga yetdi. Mijozlar soni ham shunga yarasha ortib bordi.

Uzoqdan kelgan hojattalab insonlarning shu yerda yashab, tuya sutidan bahramand bo‘lishi uchun 20 o‘rinli qo‘shimcha uy qurdi.

— Bir vaqtlari Rossiyaga borib ishlaganimda oyiga 200-300 dollarni zo‘rg‘a topardim. Hozir oilamiz bilan kuniga 100 dollardan oshiq daromad qilyapmiz, — deydi tadbirkor Azimjon Azizov.

Xullas, Bog‘bon mahallasida tadbirkor bo‘lmagan oila deyarli qolmadi.

— Biz taklif bilan borganimizda mahalladoshlarimiz “Endi bankdan kredit olmaymiz”, deyishmoqda. Chunki tomorqasidan, hunarmandlik, chorvachilikdan daromad qilganlar o‘z mablag‘lari hisobidan biznesini kengaytirmoqda, — deydi mahalla raisi Toshpo‘lat Hasanov. — Mahallada hatto ko‘p qavatli uylar atrofida ham bo‘sh yer qolmadi. Barcha yerlarning endi o‘z egasi, sohibi bor. Bu yerlarga gullar, ko‘chatlar, sabzavotlar ekib qo‘yishgan.

Uyga qaytar ekanmiz, mayin esayotgan yoqimli shabada shu atrofdagi paykaldan handalak hidini dimog‘imizga urdi. Yaqinda poliz ekinlari ham dasturxonlarimizni obod qiladi, degan o‘y-xayolimizni band etdi. Chunki Bog‘bon mahallasining haqiqiy dehqon va bog‘bonlarini endi quyosh uyg‘otmaydi, aksincha, ular quyoshni uyg‘otishga o‘rganib qoldi.

Zoir ERGASHEV,
jurnalist

Jamiyatda nogironligi bo‘lgan shaxslarga nisbatan qarashlarni o‘zgartirish ham assotsiatsiya faoliyatining ustuvor yo‘nalishlaridan. Bugun aksariyatimiz bunday toifadagi insonlarga “yordamga muhtoj qatlam”, degan nigoh bilan qaraymiz. Katta konsert zallarida o‘tayotgan tomoshalarga yetib borolmayotgan imkoniyati cheklanganlar ham bu holat uchun o‘zini aybdor his qiladi. Holbuki, buning uchun ularga yetarli sharoit — panduslar, yo‘lakchalar va boshqa imkoniyat yaratib bera olmayotgan jamiyat bu masalada ko‘proq javobgar.

INSON QADRI UCHUN

IJTIMOIY DAVLAT MAQOMI MAS’ULIYATI

Nogironligi bor shaxslarning huquq va manfaatlari qanday ta’minlanyapti?

Bahor XIDIROVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

BMTning dunyo miqyosida aholining ushbu toifasi to‘g‘risidagi ma’lumotlari va ularni qiynayotgan muammolarga doir raqamlari fikrimiz isbotidir. Ushbu tashkilot ma’lumotlarida qayd etilishicha, bugun dunyo aholisining 10 foizga yaqini nogironligi bo‘lganlar. Demografik o‘sish, tibbiyot yutuqlari va aholining qarish jarayoni natijasida bu ko‘rsatkich muntazam o‘sib bormoqda.

Qolaversa, nogironlik ko‘pincha ta’lim darajasi eng past aholi qatlamida uchraydi. Bunday qatlamdagi nogironlikning o‘rtacha ulushi 19 foizni, ta’lim darajasi yuqori bo‘lgan aholi o‘rtasidagi ko‘rsatkich esa 11 foizni tashkil etadi. Bundan tashqari, besh yoshgacha bo‘lgan bolalarning o‘lim ko‘rsatkichida nogironligi borlarning ulushi yuqori.

Bu raqamlar har qanday insonni bezovta qilmay qolmaydi. Shu bois, aholining ushbu toifasiga e’tibor va ko‘makni kuchaytirish, ta’lim olishi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi, hamma qatori turmush kechirishi uchun zarur sharoit yaratish har qachongidan ham dolzarb. Jahon hamjamiyati bu borada qator chora-tadbirlarni ko‘rmoqda. Jumladan, BMTning Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasini qator davlatlar ratifikatsiya qilgan va unda belgilangan vazifalar ijrosi doirasida tizimli ishlar bajarilyapti.

Ijtimoiy davlat tamoyili — amalda

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ijtimoiy davlat maqomini zimmasiga olgan O‘zbekiston uchun ham bu tamoyillarni ro‘yobga chiqarish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Konstitutsiyamizga muvofiq, mehnatga layoqatsiz va yolg‘iz keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalari huquqlari davlat himoyasida. Shunga muvofiq, davlat nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar obyektlari, xizmatlaridan to‘laqonli foydalanishi uchun shart-sharoit yaratishi, ishga joylashishi, ta’lim olishiga ko‘maklashishi, zarur axborotni to‘sqinliksiz olishi uchun imkoniyat yaratishi zarur.

Hozir yurtimizda 1 millionga yaqin nogironligi bo‘lgan shaxs, jumladan, 100 mingdan ortiq 16 yoshgacha nogironligi bo‘lgan bola istiqomat qilmoqda. Inson qadri, huquq va manfaatlarini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi etib belgilangan mamlakatimizda barcha fuqaro kabi nogironligi bo‘lganlarning jamiyat hayotidagi hamma sohada ishtirok etishi uchun zarur sharoit yaratilmoqda. 2020-yili “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi qonun imzolangani bu boradagi ishlarni jadallashtirdi. Mazkur huquqiy hujjat bilan imkoniyati cheklanganlarni ijtimoiy himoya qilish va huquqlarini kafolatlashga oid qator masalalar qonun darajasida belgilandi.

2021-yili O‘zbekiston parlamenti BMTning Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasini ratifikatsiya qildi. Shu bilan birga, yurtimizda barcha fuqaro, shu jumladan, nogironligi bo‘lganlar uchun bir xil imkoniyat amal qiladigan inklyuziv jamiyat barpo etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar ko‘rilyapti. Nogironlikni belgilashning allaqachon eskirgan tibbiy modelidan umume’tirof etilgan ijtimoiy modeliga bosqichma-bosqich o‘tish ko‘zda tutilgan.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlarini ta’minlash bo‘yicha milliy institutsional tuzilma tubdan isloh etilib, hukumat huzurida doimiy faoliyat yurituvchi Nogironligi bo‘lgan shaxslar ishlari bo‘yicha idoralararo kengash tashkil qilindi. Mazkur kengash nogironligi bo‘lganlarning huquqlarini ta’minlash sohasida davlat siyosati yuritish, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini muvofiqlashtirish, bu yo‘nalishdagi dasturlarni amalga oshirishda ishtirok etish, ushbu shaxslarni o‘qitish, kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, mehnat qilishi va bandligiga ko‘maklashish, jamiyat va davlat hayotida to‘la huquqli ishtirok etishi uchun qulay sharoit yaratish borasida ishlamoqda.

Bu toifadagi shaxslarni hayotga moslashtirish va ijtimoiy reabilitatsiya qilish borasida ham katta ishlar bajarilmoqda. Masalan, qator tibbiy-ijtimoiy muassasalar rekonstruksiya qilinib, zamonaviy talablarga mos yangi davolash-reabilitatsiya o‘rinlari foydalanishga topshirildi. Bundan tashqari, bepul beriladigan protez-ortopediya buyumlari va reabilitatsiya texnik vositalari ro‘yxati kengaytirildi. Xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish dasturi amaliyotga tatbiq etila boshladi. Maktablarda imkoniyati cheklangan bolalarning bilim olishi uchun zarur sharoit yaratildi. O‘z navbatida, bu yo‘nalishda qilinayotgan ishlar nogiron yigit-qizlarning hech kimdan kam bo‘lmay voyaga yetishi va jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga xizmat qilyapti.

Nogironligi bo‘lgan yoshlarning sifatli ta’lim olishi uchun teng imkoniyat ko‘lami yildan yilga kengaymoqda. Kasb-hunarga o‘qitish va munosib ish o‘rinlari yaratish orqali ularning daromadini ko‘paytirishga qaratilgan chora-tadbirlar kuchaytirilyapti. Shu bilan birga, ularning salomatligini asrash, tibbiy xizmat ko‘rsatish ishlari tizimli davom ettirilmoqda.

Imkoniyati cheklangan fuqarolar mamlakatimizning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotida faol qatnashishi uchun “to‘siqsiz muhit”, ya’ni qulay sharoit yaratilyapti. Jumladan, yangi barpo etiladigan davlat idoralari binolari, ijtimoiy obyektlar, bog‘ va parklar, jamoat transportida maxsus infratuzilma yaratish, davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimini nogironligi bo‘lganlarga moslashtirish bo‘yicha choralar ko‘rilayotir. Ular uchun maxsus axborot portallari, teleko‘rsatuvlar, adabiyotlar va kutubxonalar soni ko‘paytirilyapti.

> **Yaqin-yaqingacha mamlakatimizda saksonga yaqin NNT nogironligi bor shaxslarning muammosi bilan shug‘ullanar, har biri o‘z yo‘nalishi bo‘yicha alohida faoliyat yuritardi. NNTlar o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik, xabardorlik yo‘q edi. Bu esa tegishli vazifalar samarali yechim topishi va muammolarga jamoatchilikning e’tiborini to‘la jalb etishga to‘sqinlik qilardi. Shu muammolarni bartaraf etish va sa’y-harakatlarni birlashtirish maqsadida 2018-yilda O‘zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi tashkil etildi.**

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 1-iyundagi “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq, Prezident huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etilgani bu jabhadagi ishlar rivojida yana bir muhim qadam bo‘ldi. Mazkur agentlik nogironligi bo‘lgan shaxslar bilan ishlash tizimini takomillashtirish yo‘nalishida ham tegishli chora-tadbirlar ko‘rmoqda.

2024-yil 20-fevralda Prezidentimiz raisligida ijtimoiy himoya sohasidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ham nogironligi bo‘lgan shaxslar manfaatlariga alohida e’tibor qaratildi. Xususan, nogironligi bo‘lganlarni o‘qitish, ishga joylash va sportga jalb qilish bo‘yicha milliy tizim shakllanishi, ishlash va kasb-hunar o‘rganishda to‘siqsiz muhit yaratish uchun “mehnatga layoqatini belgilash” amaliyotidan voz kechilishi, shuningdek, nogironlik kasallikka qarab emas, balki shaxsning mustaqil harakati, muloqot qobiliyati va ijtimoiy hayotdagi ishtirokiga nisbatan belgilanishi alohida ta’kidlandi.

> Hozir yurtimizda 1 millionga yaqin nogironligi bo‘lgan shaxs, jumladan, 100 mingdan ortiq 16 yoshgacha nogironligi bo‘lgan bola istiqomat qilmoqda. Inson qadri, huquq va manfaatlarini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi etib belgilangan mamlakatimizda barcha fuqaro kabi nogironligi bo‘lganlarning jamiyat hayotidagi hamma sohada ishtirok etishi uchun zarur sharoit yaratilmoqda.

— Ko‘p yillar bank sohasida ishlaganman, — deydi zangiotalik Abdulatif Musayev. — Yoshim 38 da, 3 farzandim bor, biroq koronavirusga chalinganimdan keyin salomatligim yomonlashdi. Bir necha bor davolanishimga qaramay, sog‘lig‘im to‘la tiklanmadi, nogironlik guruhiga chiqishimga to‘g‘ri keldi. Shunga qaramay, salomatligimga to‘g‘ri keladigan ish bo‘lsa, ishlash niyatim bor edi. Hozir mahallalardagi hokim yordamchilari bandlik masalasida aholining barcha toifasi, shu jumladan, nogironligi bo‘lgan shaxslarga ham yaqindan ko‘mak beryapti. Men ham shu imkoniyatdan foydalanib, o‘z mutaxassisligim bo‘yicha ishga qaytdim.

2023-yil yanvar-noyabr oylarida imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan 14 ming 748 shaxsning bandligiga ko‘maklashilgan. “Ishga marhamat” monomarkazlarida nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun mehnat bozorida talab yuqori kasblar, xorijiy til, kompyuter savodxonligi va dasturlash asoslari bo‘yicha o‘quv kurslari doimiy tashkil etib kelinmoqda.

Nogironlar jamiyatlari taklifi asosida kasb-hunarga o‘qitilayotgan bu toifadagi shaxslarga nogironlik nafaqasi bilan bir vaqtda Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasidan bazaviy hisoblashning 2 barobari miqdorida har oylik rag‘bat puli to‘lanmoqda.

Ayni paytda barcha darajadagi rahbarlar va davlat idoralari mas’ullari tomonidan nogironligi bo‘lgan shaxslarning muammolarini o‘rganish va hal qilish bo‘yicha doimiy muloqot tizimi yo‘lga qo‘yilib, tizimli ishlar davom ettirilyapti.

NNTlarning o‘rni qanday bo‘lmoqda?

Yaqin-yaqingacha mamlakatimizda saksonga yaqin NNT nogironligi bor shaxslarning muammosi bilan shug‘ullanar, har biri o‘z yo‘nalishi bo‘yicha alohida faoliyat yuritardi. NNTlar o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik, xabardorlik yo‘q edi. Bu esa tegishli vazifalar samarali yechim topishi va muammolarga jamoatchilikning e’tiborini to‘la jalb etishga to‘sqinlik qilardi. Shu muammolarni bartaraf etish va sa’y-harakatlarni birlashtirish maqsadida 2018-yilda O‘zbekiston nogironlar assotsiasiyasi tashkil etildi. Hozir assotsiatsiya tizimida 44 ta NNT faoliyat yurityapti. Bu birlashuv nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy-iqtisodiy masalalarini davlat va xalqaro tashkilotlar oldida ifoda etishda yakdillik bilan ish yuritishga zamin yaratmoqda.

Bugun Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarda assotsiatsiyaning hududiy bo‘limlari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. O‘zbekiston nogironlar assotsiasiyasi o‘zining rasmiy veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalariga ega. Bu sohaga oid yangiliklarni ommaga keng taqdim etish, uyushma amalga oshirayotgan loyihalarni izchil targ‘ib etishda qulay imkoniyat yaratmoqda.

Assotsiatsiya raisi Oybek Isoqovning aytishicha, tashkilot olti yo‘nalishda ish yurityapti. Qonunlar qabul qilish jarayonida ishtirok etish tuzilma faoliyatining muhim yo‘nalishidir. O‘tgan yili assotsiatsiya mutaxassislari bu borada qator tadbirlar va yig‘ilishlarda ishtirok etib, tegishli sohalar yuzasidan taklif va tavsiyalarini berdi. Xususan, Konstitutsiyaviy komissiyaga nogironlar huquqlarini himoya qilishga doir 24 ta taklif yubordi. Ularning 7 tasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga kiritildi. Bundan tashqari, qator qonun va boshqa huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda takliflar berdi. Jumladan, o‘ttizga yaqin me’yoriy hujjat loyihalari taqdim etildi. Ulardan salmoqli qismi qonun hujjatlarimizdan joy oldi.

“Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq, O‘zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi Toshkent shahridagi davlat xizmatlari markazlarida nogironligi bo‘lgan shaxslar foydalanishi uchun to‘siqsiz muhit mavjudligi bo‘yicha qator jamoat monitoringlari o‘tkazdi va ular uchun davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirish bo‘yicha tavsiyalar berdi.

“Do‘stlik-Qo‘yliq” yer usti metro yo‘nalishining “Matonat” bekatida o‘tkazilgan jamoatchilik nazoratida panduslar yo‘qligi aniqlandi. Platformada piyodalar o‘tish joyi va eshitish qobiliyati zaiflar uchun ko‘rsatuvchi tablo yo‘qligiga ham e’tibor qaratildi. Bunday o‘rganishlar nafaqat poytaxtimizda, balki yurtimizning turli hududida o‘tkazilib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tegishli taklif va tavsiyalar berilyapti.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya asoslari va NNTlar salohiyatini oshirishga oid loyiha bo‘yicha hududlarda treninglar o‘tkazildi. Bu jarayonda nogironlikka yondashuv, konvensiya normalarini qo‘llashda NNTlar ishtiroki, davlat dasturlarini amalga oshirishda davlat organlari bilan hamkorlikning huquqiy asoslari kabi masalalar muhokama qilindi.

Assotsiatsiya xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga ham doimiy e’tibor qaratmoqda. O‘tgan yili bu yo‘nalishda tegishli davlat muassasalari va xalqaro tashkilotlar ishtirokida ko‘plab tadbirlar, jamoatchilik muhokamalari o‘tkazildi.

Jamiyatda nogironligi bo‘lgan shaxslarga nisbatan qarashlarni o‘zgartirish ham assotsiatsiya faoliyatining ustuvor yo‘nalishlaridan. Bugun aksariyatimiz bunday toifadagi insonlarga “yordamga muhtoj qatlam”, degan nigoh bilan qaraymiz. Katta konsert zallarida o‘tayotgan tomoshalarga yetib borolmayotgan imkoniyati cheklanganlar ham bu holat uchun o‘zini aybdor his qiladi. Holbuki, buning uchun ularga yetarli sharoit — panduslar, yo‘lakchalar va boshqa imkoniyat yaratib bera olmayotgan jamiyat bu masalada ko‘proq javobgar.

Hozir yurtimizda bu borada o‘ziga xos sa’y-harakatlar boshlandi. Bino va inshootlar qurish, rekonstruksiya qilish, jamoat transporti, axborot va aloqa vositalari ishlab chiqarishda nogironligi bo‘lgan shaxslarning hech bir moneliksiz foydalana olishiga birlamchi ahamiyat qaratilyapti. Joriy yildan boshlab yangidan barpo etilgan qurilish inshootlarini foydalanishga qabul qilish bo‘yicha komissiyalar tarkibiga Nogironlar assotsiatsiyasi vakillari ham kiritilgani bu jabhada katta qadam bo‘ldi. Hozir assotsiatsiya mutaxassislari bu yo‘nalishda faol ishlayapti.

Oybek Isoqovning aytishicha, ba’zida joylardagi mutasaddilar assotsiatsiyaning hududiy bo‘limlari rahbarlariga bu masalada qo‘ng‘iroq qilib, bosim o‘tkazish holatlari ham uchramoqda. Ammo assotsiatsiya mas’ullari ularga yon berish niyatida emas. Chunki bu inson huquqi va manfaatiga jiddiy to‘g‘anoq bo‘ladi. Aholining eng ehtiyojmand qatlami — nogironligi bo‘lgan shaxslarning davlat siyosatidan ko‘ngli to‘lmasligiga olib keladi.

Ayni paytda Nogironlar assotsiatsiyasi mutaxassislari bunday muammolarning ildizi qayerga borib taqalishi yuzasidan ham izlanishda. O‘rganishlardan ma’lum bo‘lishicha, yangi qurilayotgan bino va inshootlarda nogironligi bo‘lgan shaxslarning talab va ehtiyojlari to‘la inobatga olinmayotgani binoni loyihalash jarayoniga borib taqalyapti.

— Arxitektorlar inshoot loyihasini chizishda ko‘pincha bu jihatlarni e’tibordan chetda qoldirmoqda. Bu holatga mutaxassislarga ta’lim jarayonida ushbu yo‘nalishda shaharsozlik normalari va qoidalari to‘la-to‘kis o‘qitilmayotgani sabab bo‘lmoqda, — deydi Oybek Isoqov. — Bu bo‘yicha ham tegishli tashkilot va muassasalarga tavsiyalar, takliflar berilgan.

O‘zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi ish tajribasi nufuzli xorijiy tashkilotlar tomonidan munosib e’tirof etilyapti. Unga BMTning ijtimoiy-iqtisodiy qo‘mitasi tomonidan 2020-yilda maslahat beruvchi tashkilot maqomi berilgani buning isboti. Albatta, NNTlarning bu jabhadagi yutuqlari mamlakatimizda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini qo‘llab-quvvatlash, nogironligi bo‘lgan shaxslarni jamiyatimizning to‘laqonli a’zosiga aylantirish yo‘lidagi sa’y-harakatlarning o‘ziga xos natijasidir.

Hayot davom etar ekan, bu yo‘nalishda davlat va nodavlat tuzilmalar oldida yangi-yangi vazifalar paydo bo‘laveradi. Quvonarlisi, bugun yurtimizda bunday masalalarni samarali hal etish uchun siyosiy iroda va zamonaviy tizim, intellektual salohiyat yetarli. Bu esa mo‘ljalni aniq olish va vazifalarni to‘g‘ri chamalash, pirovardida, ko‘zlangan maqsadlarga erishish yo‘lida yorqin istiqbol ochadi.

Bugun G‘ozg‘onda ishlab chiqarilayotgan 7 xil rangdagi noyob marmar va granit toshlar Rossiya, Tojikiston va Qozog‘iston kabi mamlakatlarga eksport qilinmoqda. Korxonada nafaqat granit plita ishlab chiqarilmoqda, balki undan maishiy hayotimiz va qurilish-bunyodkorlik ishlarida foydalanish uchun turli buyumlar ham yasalayotgani majmuaning texnik va texnologik qudratidan dalolat beradi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 2-iyun, 108-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Islohotlar samarasi

G‘OZG‘ONNING KAMALAKRANG JILOSI

dunyoda kamyob, investorlar uchun esa jozibador

Yurtimizdagi muhtasham binolar, tarixiy obidalar, qadamjolar, shahar-u qishloqlardagi ko‘rkam inshootlarni bezab turgan marmarlar yoki granit toshlar ko‘zimizni quvontiradi. Ammo bu go‘zallik va nafislik o‘z-o‘zidan barpo bo‘lmaydi, qanchadan-qancha mashaqqatli mehnat evaziga yaratiladi.

Marmar zaxirasiga boy mamlakatlar ko‘p. Masalan, 250 dan ortiq marmar koniga ega Italiya oq marmari bilan shuhrat qozongan bo‘lsa, Nurota tog‘lari va hududdan qazib olinadigan G‘ozg‘on marmari hamda granit toshi nafis jilosi, sifati bilan xorijnikidan aslo qolishmaydi. Jahon bozorida yetakchi o‘rin egallaydi.

Navoiy viloyatida marmar va granit mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmi yildan yilga oshib bormoqda. Boisi, ushbu yo‘nalishga ixtisoslashgan korxonalar ko‘payib, mavjudlari faoliyatini yanada kengaytirmoqda. Bu jarayonda G‘ozg‘on shahrining imkoniyati va salohiyati muhim o‘rin tutadi.

G‘ozg‘on azaldan kamalakrang jilolanuvchi tabiiy marmari va graniti bilan dunyoga tanilgan. Mutaxassislar fikricha, bunday rang-barang marmar dunyoda kamyob sanaladi. O‘tmishda ham bu hududdan nafis buyumlar yasashga qulay yupqa marmar olingan. Undan har xil tovoq, bolalar o‘yinchog‘i, xotin-qizlar uchun bezaklar yasalgan. G‘ozg‘onda qadimdan toshtaroshlik hunari mavjud bo‘lib, bugun tadbirkorlik turi sifatida yanada rivojlanmoqda. Asosiy investitsiya loyihalarining aksariyati shu yo‘nalishda amalga oshirilmoqda. Xususan, hududdagi zavodlarda asil g‘ozg‘on marmari va granit plita tayyorlanmoqda. Bu mahsulotlarni dunyo bozoriga olib chiqishda zamonaviy texnologiyalarga ega ishlab chiqarish korxonalari muhim o‘rin tutadi.

Shaharda “Marmarobod” sanoat klasteri ish boshlagani va muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgani ushbu yo‘nalishning eng muhim rivojlanish bosqichi bo‘ldi. Klaster toshni qazib olish va qayta ishlashdan tortib, barcha qayta ishlovchilarni zarur xomashyo bilan ta’minlab berishni zimmasiga olgan. Tijorat bankining 4 million dollarlik imtiyozli krediti hisobiga Xitoydan zamonaviy uskunalar keltirildi. Yiliga 70 ming kub metr tosh qazib olish va 1,2 million metr kvadrat toshni qayta ishlash quvvatiga ega korxona mutaxassislari yangi uskunalar yordamida Pashshot va Parg‘at karyerlaridan granit toshlarni zamonaviy usulda qazib oladi.

— Korxona ish boshlashi bilan ko‘plab yangi ish o‘rni yaratildi. Unda 100 dan ziyod yosh mutaxassis ishlayotir, — deydi G‘ozg‘on shahri hokimi o‘rinbosari Akbar Asrorov. — Ayni vaqtda to‘liq quvvat bilan ishlayotgan zavodda asosan, marmar va granit toshdan plitalar tayyorlanib, mahalliy bozorlarga yetkazilmoqda hamda dunyo mamlakatlariga eksport qilinmoqda. Hududda 33 million kub metr marmar, 100 million kub metrdan ziyod granit tosh zaxirasi mavjud. Bu ko‘rsatkich aniqlangan zaxiralar bo‘lib, hali bu borada izlanishlar davom etmoqda.

Bugun G‘ozg‘onda ishlab chiqarilayotgan 7 xil rangdagi noyob marmar va granit toshlar Rossiya, Tojikiston va Qozog‘iston kabi mamlakatlarga eksport qilinmoqda. Korxonada nafaqat granit plita ishlab chiqarilmoqda, balki undan maishiy hayotimiz va qurilish-bunyodkorlik ishlarida foydalanish uchun turli buyumlar ham yasalayotgani majmuaning texnik va texnologik qudratidan dalolat beradi.

G‘ozg‘on marmar va granitidan tashqari sangtaroshlari bilan ham mashhur. Ulardan biri O‘zbekiston xalq ustasi Tohir Rahimovdir. Mashhur sangtaroshning mo‘jaz ustaxonasida marmardan yasalgan ko‘plab san’at asarlari, ustun va bezaklar bugun muhtasham binolarni, tarixiy maskanlarni bezab turibdi. Ushbu ustaxona sangtaroshlik bo‘yicha o‘ziga xos maktabga aylangan.

— Ilgari bu hunarga e’tibor kam edi. Tarixiy maskanlar, madaniy meros obyektlari qayta tiklana boshlagandan keyin bu yo‘nalishga ehtiyoj ortdi, — deydi O‘zbekiston xalq ustasi Tohir Rahimov. — Shogirdlarimiz ko‘p. Ular sangtaroshlikni puxta egallab, hududlarda ishimizni davom ettiryapti. G‘ozg‘onning tengsiz marmari dunyodagi mashhur binolarni bezatib turibdi.

Ayni vaqtda Navoiy shahrida granit toshni qazib olish va qayta ishlab, tayyor mahsulot yetkazib berishga ixtisoslashgan “Tiancheng stone” xorijiy korxonasi ham muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Xitoylik investorlar ko‘magida ochilgan korxonada yiliga o‘rtacha 120 ming metr kub granit tosh qayta ishlanadi.

Investorlar dastlab 2021-yili 7 million dollarlik loyihani taqdim etgan bo‘lsa, keyinchalik 20 million dollar miqdorida investitsiya kiritdi. Natijada granitdan pardozbop materiallar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan “Tiancheng stone” korxonasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

— Mahsulotlarimiz mahalliy bozor bilan birga xorijiy davlatlarda ham sotilmoqda. Ishlab chiqarilgan mahsulotning 70 foizi eksportga yo‘naltiriladi. O‘tgan yili Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikistonga 10 million 460 ming dollarlik mahsulot eksport qilindi, — deydi korxona ijrochi direktori Balgin Tursunxa. — Ichki bozorga esa 40 milliard so‘mlik mahsulot sotdik.

Prezidentimizning 2018-yil 5-iyundagi “Navoiy” erkin iqtisodiy zonasi faoliyatini kengaytirish va Navoiy viloyatida kichik sanoat zonalarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida davlat mulki bo‘lgan obyektlar va ishlab chiqarish maydonlaridan samarali foydalanish, investitsiyalarni faol jalb qilish uchun qulay sharoit yaratish belgilangan.

Shuningdek, raqobatbardosh, zamonaviy ishlab chiqarish obyektlari va kichik korxonalarni rivojlantirish, loyihalarni muhandislik-kommunikatsiya va ishlab chiqarish infratuzilmasi mavjud alohida hududlarda joylashtirish hamda shu asnoda ishlab chiqarish sohasida yangi ish o‘rinlari yaratish va aholining bandligini oshirish ko‘zda tutilgan. Bunday hududda faoliyat yuritayotgan korxonalar uchun qator imtiyoz va imkoniyatlar mavjud. Soliq va bojxona tizimidagi ushbu imtiyozlar sababli mazkur korxona faoliyati yildan yilga rivojlanmoqda.

2021-yili 155 ishchiga ega korxonaning tovar aylanmasi 66 milliard 337 million 600 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 179 milliard 354 million 800 ming so‘mga yetkazildi va ishchilar soni 545 nafarga ko‘paydi. Joriy yilning birinchi choragida esa 700 ga yaqin ishchiga ega korxonaning tovar aylanmasi 22 milliard 484 million 770 ming so‘mni tashkil etdi.

Hozir korxona mahsuloti sifati bilan mamlakatimiz va qo‘shni davlatlar orasida alohida o‘ringa ega. Uning ichki va tashqi savdo bo‘yicha hamkorlari kundan kunga ko‘paymoqda. Mahsulotlarning eksport hajmi ham shunga mos ravishda oshmoqda. 2021-yili korxona 3 million 870 ming dollar qiymatidagi mahsulot eksport qilgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 10 million 460 ming dollarni tashkil etdi. Joriy yilning birinchi choragida esa 1 million 154 ming dollarlik mahsulot xorijlik mijozlarga yetkazib berildi. Bu natijaga erishishda o‘tgan yil avgustida korxonaning 2 ta yangi filiali ishga tushirilgani muhim ahamiyat kasb etdi.

Korxonada ish jarayoni ikki navbatda tashkil etilgan. Ishchilar maxsus kiyim bilan ta’minlangan. Barcha xavfsizlik qoidalari muntazam tushuntirib boriladi. Uzoq masofadan kelib ishlaydiganlar yotoqxona bilan ham ta’minlanadi. Ishchilarga bepul issiq ovqat beriladi.

Granit mahsulotlarning mijozlar qo‘liga yetib borishida faqat korxonadagi kesish, qayta ishlash emas, balki tog‘ bag‘ridagi karyerdan qazib olish, olis masofadan shaharga, ya’ni korxonaga yetkazishdek murakkab, mashaqqatli jarayon ham bor.

Korxona Xatirchi tumanidagi 24 gektarli Ko‘ksaroy karyerini tasarrufiga olgan. Bu yerda granit tosh qazib olish, maxsus texnikalar yordamida kesish va korxonaga yetkazish ishlari bajariladi. Ahamiyatlisi, ushbu karyerda 70 dan ziyod mahalliy aholi ish bilan ta’minlangan.

Mahalliy fuqarolarning ish bilan bandligi ta’minlanishi, xitoylik hamkorlar bilan yelkama-yelka faoliyat yuritishi oilalarni daromadli qilibgina qolmay, o‘zaro tajriba va bilim almashish imkoniyatini ham beradi.

— Mustahkam, chiroyli, tiniq rangi bilan ajralib turishi bois, Ko‘ksaroy karyeridagi granitga talab yuqori. Shuning uchun qazib olish va ishlab chiqarish hajmi ham oshmoqda. Misol uchun, bu karyerda 2021-yili 35 kishi ishlagan bo‘lsa, hozir ular soni yetmishga yetdi. Yana bir-ikki oyda 100 dan oshadi, — deydi Ko‘ksaroy karyeri uchastkasi rahbari Chin Juy. — Bu yutuqlarning asosida yurtingizda xorijlik tadbirkorlar faoliyati uchun yaratilgan imkoniyat va sharoit turibdi. Aynan shu jihat korxona rivojida muhim. Qolaversa, asosan, hududdagi aholi orasidan ishchilarni jalb etganmiz va keyinchalik ham bu davom etadi.

“Navoiy” erkin iqtisodiy zonasi hududida joylashgan bu kabi yirik korxonalar investitsiya majburiyatini bajarib, bugun viloyatda ishlab chiqarish va eksport salohiyatini yuksaltirishga munosib hissa qo‘shib kelmoqda. Bu esa viloyatda marmar va granit ishlab chiqarish hajmining tobora oshib borishi, eksportbop mahsulotlar ko‘lami ortishida ham muhim omil bo‘lmoqda.

G‘olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Qaror va ijro

AVVALIGA ISHONMAGANDIM...

ENDI U NAFAQAT DAROMAD EGASI, BALKI ISH BERUVCHI HAM

Qarshi shahrida yashovchi Baxtiyor Tursunov bundan besh yil avval tadbirkorlik bilan shug‘ullanishni maqsad qilib, harakat boshlagandi. Sohada yetakchi bo‘lgan tanishlaridan maslahat olib, qator loyihalar ishlab chiqdi. Bir olam orzular og‘ushida biznes reja ham tuzib oldi. Endi biroz mablag‘ kerak edi. Kerakli hujjatlarni olgancha bankka bordi. Maqsadini aytib, kredit olish uchun ariza berdi. Ammo u paytlarda kredit olish eng muammoli masala bo‘lgani bois, bank xodimlari Baxtiyor akaga osongina yordam berib qo‘ya qolmadi. Avvaliga qandaydir hujjatlarni so‘rashdi. Olib kelgach, yana nimadir kam, deyishdi. Ertasiga esa keyingi oyda keling, dedi bankdagilar. Aytilgan vaqtda kelganida mablag‘ yo‘q, deya bahona to‘qishdan nariga o‘tishmadi. Xullas, asossiz sabablarning izi ko‘rinmay qoldi.

Bu holat uch-to‘rt oy davom etgach, hafsalasi pir bo‘lgan Baxtiyor aka barchasiga qo‘l siltadi. Qo‘lidagi loyihalarni ham bir chetga uloqtirib, boshqa ishning boshini tutish harakatiga tushdi. Afsuski, tayinli ishning o‘zi yo‘q edi. Shu payt xorijda ishlab qaytgan o‘rtog‘iga duch kelib qoldi. Hol-ahvol so‘rashgach, o‘zining ham chet borib ishlash niyati borligi, imkoni bo‘lsa, u bilan birga ketishni iltimos qildi.

Ko‘p o‘tmay, o‘rtog‘i hamrohligida xorijga jo‘nab ketdi. O‘zga yurtda ish topishning o‘zi bo‘lmaydi. Lekin na iloj, boriga qanoat qilib, mehnat qilmaslikning ham imkoni yo‘q. Do‘stining yordami bilan o‘zga yurtdagi korxonaga joylashdi. Kam maosh olsa-da, bir amallab orttirganini uyiga jo‘natib turdi.

— Ancha yil davlatma-davlat yurib ishlash toliqtirdi, — deydi Baxtiyor Tursunov. — Oxirgi marta o‘tgan yili chet eldan qaytganimda shu yerda biror ishlab chiqarish bilan shug‘ullanaman, degandim. Uyga kelgach, ishni nimadan boshlasam, deb bir muddat yurdim. Bir kuni mahallamiz faollari so‘rab keldi. Hokim yordamchisi hamda viloyat kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi vakillari qiziqishlarimni, biror kasb bilan mashg‘ul bo‘lish maqsadim bor-yo‘qligini surishtirdi. Shu payt avval amalga oshmay qolgan rejamni aytib, ishlab chiqarish bilan shug‘ullanmoqchi ekanimni aytdim. Kelganlar bu borada yordam berishini, harakatni hozirdanoq boshlashim mumkinligini aytganida ishonmagandim. Ish bunchalik tez bitishini kutmagandim. Kerakli hujjatlarni taqdim qilib, kichik sex ochishga erishdim. Zarur uskunalarni sotib olishim uchun bankdan imtiyozli kredit ham ajratildi. Hozir o‘zim, oilam a’zolari bilan birga mahallamizdagi olti ayol-qizning ish bilan bandligini ta’minladim. Daromadimiz yomon emas. Shuning ortidan turmushimiz yaxshilandi. Endi ishlab chiqarish yo‘nalishini yanada kengaytirish ustida ishlayapmiz.

Keyingi paytda Baxtiyor Tursunov kabi xorijda ishlab qaytgan ko‘plab fuqarolar aynan tadbirkorlik yo‘nalishi bo‘yicha yaratilgan qator imtiyozlardan foydalanib, o‘z mahallasida, qishlog‘ida yangidan-yangi korxona va ishlab chiqarish sexlari ochmoqda. Natijada nafaqat o‘zi, balki ishsiz mahalladoshlarining ham bandligini ta’minlashga hissa qo‘shmoqda. Bundan tashqari, viloyat kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi mutasaddilari ham chet davlatlarda ishlab qaytganlar bilan muntazam muloqot qilib, ish bilan ta’minlanishida ko‘makchi bo‘lmoqda.

Ma’lumotlarga ko‘ra, joriy yilning o‘tgan to‘rt oyida jami o‘n olti mingga yaqin fuqaro tashqi mehnat migratsiyasidan viloyatga qaytib kelgan. Ularning bandligini ta’minlash bo‘yicha o‘z vaqtida monitoring o‘tkazilib, hozirga qadar yetmish foizi ish bilan ta’minlandi.

— Xorijdan qaytgan har bir fuqaro bilan alohida suhbatlashib, sharoitini o‘rganyapmiz, — deydi Qashqadaryo viloyati kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari Mansur Amirov. — Migratsiyadan qaytganlarning biror tayinli kasb-hunar o‘rganishi yoki o‘zini o‘zi band qilishiga asosiy e’tibor qaratganmiz. Xususan, hozirga qadar kelganlarning mingga yaqini doimiy ish o‘rinlariga joylashtirildi. Uch mingga yaqini o‘z kasbi bilan mashg‘ul bo‘lsa, yuzga yaqini tadbirkorlik bilan mashg‘ul. Bundan tashqari, hokim yordamchilari tavsiyasiga ko‘ra, sakkiz kishiga subsidiya ajratildi. Hunar o‘rganish uchun ikki yuzdan ortiq fuqaro joylardagi “Ishga marhamat” monomarkazlariga jalb etildi.

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 4-aprel-dagi “Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida Qashqadaryo viloyatida ham amaliy harakat boshlangan. Jumladan, hozir muayyan kasb-hunarga ega, biroq ishsiz fuqarolar Germaniya, Buyuk Britaniya, Kanada, Janubiy Koreya, Yaponiya, Finlyandiya, Turkiya, Rossiya, Latviya, Polsha, Bolgariya va Qatar kabi davlatlarga ishga jo‘natilmoqda. Ketuvchilar haydovchilik, tibbiyot, qurilish, ishlab chiqarish hamda xizmat ko‘rsatish sohalarida mehnat qilishi belgilangan. Ishga boruvchilar ayni paytda ingliz, turk, yapon va rus tillarini o‘rganmoqda.

Mutaxassislar ta’kidlashicha, mehnat migratsiyasi bo‘yicha xorijga yuborilayotgan fuqarolarning til o‘rganishiga katta e’tibor qaratilmoqda. Viloyat hokimligi tashabbusi bilan vohadagi tuman va shaharlarda chet tili o‘qitiladigan 30 ga yaqin kurs ochilgan. Tinglovchilarning ko‘pi Germaniyada ishlash istagidagi fuqarolardir. Hozir 1324 kishi nemis tilini o‘rganmoqda. Shuningdek, 118 hamshira ham aynan shu mamlakatda ishlash uchun nemis tilini o‘zlashtiryapti. Bundan tashqari, Germaniya kompaniyasi bilan imzolangan hamkorlik shartnomasiga ko‘ra, shu yil viloyatda tajriba-sinov tariqasida nemis o‘quv dasturlari va texnologiyalari asosida professional kasb-hunar maktabi barpo etiladi. Shu bilan birga, boshqa xorijiy tillarni o‘rganish uchun ham keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

— O‘tgan yili xorijga ishga yuborilayotgan fuqarolarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida yetti mingdan ortiq kishiga imtiyozli xizmat ko‘rsatildi, — deydi Mansur Amirov. — Bu yil ham jarayon davom ettirilmoqda. Yil boshidan hozirga qadar uch yuzga yaqin vohadoshimiz imtiyozlardan foydalangan bo‘lsa, 175 kishining hayoti va sog‘lig‘i subsidiya hisobidan sug‘urta qilindi. Shu bilan birga, ishga boruvchilar o‘rtasida har bir davlat qonunchiligini hurmat qilgan holda mehnat qilish, qoidalarga rioya etish, xavfsizlik texnikasiga jiddiy qarash xususida targ‘ibot-tashviqot ishlari yuritilmoqda. Har bir kishi, eng avvalo, tartib-qoidaga amal qilib, salomatligini asrashi muhimligi uqtirilmoqda.

Mutaxassislarning aytishicha, 2024-yil yakuniga qadar yetmish mingga yaqin fuqaro mehnat migratsiyasidan viloyatga qaytishi taxmin qilinmoqda. Demak, hali qilinishi lozim bo‘lgan ishlar ko‘p. Asosiysi, xorijdan qaytgan har bir fuqaro bilan muloqot qilib, imkon darajasida bandligini ta’minlash. Buning uchun hozirdanoq imkoniyatlarni ishga solish zarur.

Akbar G‘OZIYEV,
jurnalist

Dolzarb mavzu

SEMIZLIK “SEMIRGANDA”...

aholining asosiy qismi sog‘lom turmush tarziga amal qilmaslikdan aziyat chekadi

Dabdabali to‘y qilamiz, qo‘sha-qo‘sha imorat ko‘taramiz, mashina olamiz yoki borini yaxshirog‘iga almashtirish payida bo‘lamiz. Bu, albatta, kishini quvontiradi. Demak, yaxshi yashayapmiz, hayotimiz to‘kis. Biroq hoy-u havasga berilib, sog‘lig‘imizga kam e’tibor qaratishimizni ham inkor etolmaymiz. Ovqatlanishga jiddiy ahamiyat bermaymiz. Jismoniy harakatimiz haminqadar.

Barno ODILOVA,
Sog‘liqni saqlash vazirligi boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari

Davlatimiz rahbari joriy yil 21-may kuni Sog‘liqni saqlash loyihalari markazi qilayotgan ishlar va yangi takliflar taqdimoti bilan tanishar ekan, jamiyatda sog‘lom turmush tarzini keng yoyish orqali kasalliklarning oldini olish, odamlarda salomatligiga mas’uliyat hissini kuchaytirish hamisha muhimligini ta’kidladi.

Ortiqcha vazn global muammo

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tadqiqotiga ko‘ra, inson salomatligining 20 foizi naslga, 20 foizi ekologiya va iqlimga, 10 foizi tibbiyot tizimiga, 50 foizi turmush tarziga bog‘liq. Ovqatlanishimiz, kun tartibini tuzishimiz, jismoniy faolligimiz va zararli odatlarga munosabatimiz salomatligimizni belgilab beruvchi omillardir.

Nima uchun bugunga kelib, hamma sog‘lom turmush tarzi haqida gapirmoqda, ortiqcha vazn muammosi jahon miqyosiga ko‘tarildi?

Xalqaro hisob-kitoblarga ko‘ra, yaqin bir necha o‘n yillikda ortiqcha vazn muammosi inson salomatligiga jiddiy xavf tug‘dirishi mumkin. 2030-yilga borib, dunyo aholisining 45 foizi semirib ketishi ehtimoli bor.

Semizlik vazn ortishi, tanada yog‘ to‘qimalari to‘planib qolishi bilan kechadigan xastalik. Uni keltirib chiqaruvchi asosiy sabablar ortiqcha kaloriyali, ayniqsa, yog‘li, qovurilgan, uglevodga boy va tuz miqdori yuqori ovqatlarni tez-tez va ko‘p iste’mol qilish, shuningdek, kamharakatlikdir.

O‘z navbatida, semizlik insult, xavfli o‘sma, yurak qon-tomir, nafas olish a’zolari surunkali kasalliklari hamda qandli diabet kabi yuqumli bo‘lmagan xastaliklarni yuzaga keltirishi, ba’zan nogironlik hamda erta o‘limga sabab bo‘lishi mumkin.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, yuqumli bo‘lmagan kasalliklar 2015-yilning o‘zida dunyo bo‘yicha 40 million odamning umriga zavol bo‘ldi. Bu esa barcha o‘lim holatining 70 foizini tashkil qiladi. O‘zbekistonda esa bunday ko‘rsatkichning 78 foizi yuqumli bo‘lmagan kasalliklar hissasiga to‘g‘ri keladi.

JSST bilan hamkorlikda o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, mamlakatimiz aholisining 67 foizi yetarli miqdorda sabzavot va meva iste’mol qilmaydi (400 grammdan kam). Aholining yarmi ortiqcha vaznga ega bo‘lsa, yana 20 foizida semizlik aniqlangan. Bir kunda iste’mol qilinayotgan tuz miqdori o‘rtacha 14,9 grammni tashkil qiladi. Bu esa JSST tavsiya etgan ko‘rsatkichdan 3 barobar ortiq. Bundan tashqari, aholining 50 foizi kam harakatda yashaydi.

Bunday kasalliklar va asoratlarining oldini olish uchun, birinchi navbatda, to‘g‘ri ovqatlanishga harakat qilishimiz kerak. Albatta, bu alohida yondashuv, xarajat va harakat talab etadigan masala emas. Buning uchun har bir odam oilasi bilan birga to‘g‘ri ovqatlanish tamoyillarini o‘ziga odat qilib, oilaviy udum va madaniyat darajasiga olib chiqishi kerak. Har bir oilaning o‘z ovqatlanish tartibi bo‘lishi juda muhim.

Birinchi navbatda, ovqatlanish vaqtini aniq belgilash zarur. Kun davomida kamida 5-6-marta ovqatlanishga odatlanish kerak. Bular: nonushta, ikkinchi nonushta, tushlik, kechki choy va kechki ovqat. Ovqatni har kuni muayyan vaqtda yeyish maqsadga muvofiq. Vaqtida yeyilgan ovqat yaxshi hazm bo‘ladi va to‘la o‘zlashtiriladi. Ovqatlanish tartibining buzilishi oshqozon-ichak kasalliklarini keltirib chiqaradi. O‘z vaqtida ovqatlanmay, och yurish gastrit, me’da va o‘n ikki barmoq ichak yarasi kabilarga sabab bo‘lsa, ko‘p miqdorda qayta-qayta ovqatlanish jigar va o‘t yo‘li, oshqozon osti bezi xastaliklari paydo bo‘lishiga olib keladi.

Ikkinchidan, ovqatning iste’mol me’yori belgilanishi kerak. Bunda iste’mol qilinayotgan ovqat quvvati sarflangan energiyani qoplashi, oila a’zolarining yoshi, jinsi, kasbidan kelib chiqib taqsimlanishi zarur. Ya’ni navqiron yoshda qurilishda ishlayotgan yigit bilan keksa ota-onalar yoki go‘dak farzandimizning ovqat tarkibi ham, adadi va miqdori ham o‘ziga mos bo‘lishi kerak. Iste’mol qilinadigan ovqatning 60-70 foizi kunning eng faol davrigacha — kech soat 16:00 gacha yeb bo‘linishi tavsiya etiladi. Kechki payt yeyilgan ovqatning hazm bo‘lishi va organizmga singishi uchun kamida 2 soat vaqt ketadi. Shuning uchun ham eng kech tanovul qilinadigan ovqat uyqudan kamida 2 soat oldin bo‘lishi kerak.

Ovqat hazm bo‘lib ulgurmasidan uxlashga yotish aynan ortiqcha vazn muammosiga, yomon xilqatli yog‘larning qon tomirlarida to‘planishiga sabab bo‘ladi. Ya’ni semizlik va atroskleroz kasalliklari yuzaga kelishini tezlashtiradi.

Ovqat me’yori, deganda kunlik miqdori va bir martalik iste’mol me’yori — porsiyaga ham e’tibor qaratish muhim. Uni kichik porsiyalarda, shoshmasdan, ko‘p chaynab iste’mol qilish hazm jarayonini osonlashtiradi. Chunki ovqatni chala chaynab, tez iste’mol qilish orqali to‘yganlik hissi sezilgunga qadar ko‘p ovqat iste’mol qilib qo‘yish xavfi yuqori bo‘ladi. Oshqozon shirasi ajralib ulgurmaydi, so‘lak bilan yaxshi aralashmagan taomning hazm jarayoni sekinlashadi. Natijada oshqozonda og‘irlik, yurak og‘rig‘i, nafas olishning qiyinlashuvi kabilar paydo bo‘lishi mumkin.

Uchinchidan, iste’mol qilinadigan ovqat sifat nuqtayi nazaridan mukammal, har xil va kerakli miqdordagi oqsil, yog‘, uglevod, mineral modda va vitaminlarga boy bo‘lishi lozim. Bir xil ovqat (masalan, xamirli, yog‘li ovqat yoki fast-fud, shirinliklar)ni tez-tez va ko‘p miqdorda, ayniqsa, kechki taom paytida iste’mol qilish modda almashinuvining buzilishiga, semizlik va yuqumli bo‘lmagan kasalliklarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ratsionga, albatta, sabzavot kiritish kerak. Ayniqsa, xom sabzavot va ko‘katlar qo‘shib salat yeyish, yetarli miqdorda suyuqlik (toza suv) iste’mol qilishga odatlanish muhim.

Har bir organning qon va u orqali barcha vitamin va mikroelementlar bilan ta’minlanishi uchun qonning doim suyuq bo‘lishini ta’minlash zarur, buning uchun esa kun davomida iste’mol qilinadigan suv/suyuqlik miqdori 2 litrdan kam bo‘lmasligi kerak. Issiq yoz kunlarida suyuqlikka talab 2 barobargacha

oshishi mumkin. Organizmning suvsizlanishi birinchi navbatda, qon aylanish tizimi va buyraklar faoliyati buzilishiga olib keladi.

Inson va tabiat: zanjirning har bir halqasi bebaho

Atrof-muhitga munosabat inson salomatligida muhim o‘rin tutadi. Go‘zal tabiat, toza atrof-muhit, musaffo osmon, yam-yashil dalalar, zilol suv ko‘zni quvnatib, dilni yayratadi. Manzaraga boqib, kayfiyat ko‘tariladi. Kasallik chekingandek, muammo o‘z-o‘zidan yechilgandek odam yengil tortadi. Insoniyat ona tabiatga, atrof-muhitga muttasil ta’sir ko‘rsatadi. Biz tabiat ne’matlaridan kundalik turmushimizda foydalanamiz. Lekin uni isrof qilishga, bulg‘ashga aslo haqqimiz yo‘q. Shu o‘rinda chiqindilarning inson salomatligiga salbiy ta’siriga biroz to‘xtalmoqchiman.

O‘g‘lim Yaponiyada o‘qiydi. U mazkur davlatdagi chiqindini maxsus konteynerlarga taqsimlash va olib ketish jarayoni haqida gapirib berganida dastlab menga biroz erish tuyulgan. Lekin keyinchalik o‘zim bu mamlakatga xizmat safariga borganimda hayratga tushdim. Ajablantirgani, uylar yonida odatiy chiqindi konteynerlari yo‘qligi, aholining o‘z xonadonida chiqindini yonuvchan, yonmaydigan, yog‘och, shisha, plastmassa, metall kabi turlarga ajratib, vaqtincha saqlashi, ayniqsa, oziq-ovqat qoldig‘ini to‘kilib ketmaydigan qilib qadoqlashi, chiqindilarni olib ketish xizmati keladigan paytdagina maxsus joyga qo‘yishi emas, balki bu jarayonga aholining munosabati va buni odatiy holat, burch sifatida qabul qilgani bo‘ldi. Birov chiqindi tashlasa, kimdir kelib unga urishish, tanbeh berish, jarima to‘latish, turli yozuvlar yozilgan taxtachalar bilan dag‘dag‘a qilish o‘rniga o‘zi bu chiqindini olib ketar ekan. Naqadar olijanob madaniyat, tarbiya va fuqarolik burchi!

Negadir kundalik hayotda bizdan keyin ko‘cha-ko‘yni tozalaydiganlarga ham ish topib berishimiz shartdek tutamiz o‘zimizni. Bu tarbiya oilada shakllanadi. Farzandimiz kichik yoshdan olgan narsasini o‘z joyiga qo‘yishini, o‘zidan keyin chiqindi qoldirmasligini va uni maxsus ajratilgan joyga olib borishi zarurligini refleks darajasiga yetkazsak, bir umr esidan chiqarmaydi va doim bunga rioya qiladi.

Nafaqat shahrimiz, balki dam olish maskanlari, tabiat qo‘ynida, suv bo‘yida bugun dam oluvchilardan qoladigan chiqindini ko‘rib, ko‘nglimiz xira bo‘ladi, ranjiymiz.

Xizmat vazifasi bilan bir hududdagi shifoxonaga borishga to‘g‘ri keldi. Shifoxona juda shinam, ozoda, ko‘m-ko‘k maysalar bo‘y cho‘zgan, turfa rang atirgullar ochilib turibdi. Bemorni ko‘rgani kelganlar uchun alohida kutish zallari, qulay o‘rindiqlar, hatto bolalar maydonchasi ham bor. O‘zimni shifoxona emas, parkka, dam olish maskaniga kelganday his qildim, biroq quvonchim uzoq cho‘zilmadi. O‘rindiqlarning shunday orqasiga — yerga eski ko‘rpacha to‘shab, yonboshlab yotgan erkaklar, gullar yoniga bolasini to‘sayotgan ayollar, qovun-tarvuz po‘chog‘ini xohlagan joyiga otayotgan yoshlarni ko‘rib, hayratda qoldim...

Demoqchimanki, ozodalik, orastalikka rioya qilish, atrof-muhitga munosabat sog‘lom turmush tarzining muhim shartlaridan. Kundalik hayotida inson atrof-muhitga muayyan darajada ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, hayotimiz uchun zarur oziq-ovqatlardan chiqindi hosil bo‘lishi o‘ta tabiiy hol. Bilasiz, chiqitni to‘g‘ri kelgan joyga tashlash tufayli atrof-muhit ifloslanadi. Suv, tuproq va havoda salomatlikka salbiy ta’sir qiluvchi omillar vujudga keladi. Turli yuqumli va allergik kasalliklar, oshqozon-ichak tizimi kasalliklarining ko‘payishiga olib keladi.

> **Kishi kundalik hayotda jismoniy mashqlar, sport o‘yinlari, badanni chiniqtiruvchi muolajalar bilan ko‘proq shug‘ullansa, organizmdagi fiziologik, biologik jarayon faollashadi. Natijada kayfiyat ko‘tarilib, ishchanlik qobiliyati ortadi. Shubhasiz, bu salomatlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.**

Shuning uchun ham ozodalikka qat’iy amal qilish, ona tabiatga hurmatda bo‘lish odatiy holga aylanishi kerak. Inson va tabiat o‘zaro chambarchas bog‘liq. Uning har bir halqasi ona zamin uchun muhim.

Tez ozish mumkin, faqat... reklamada

Bugun bir odat urfga kirdi: ijtimoiy tarmoqlarda 3 kunda biror xastalikdan butkul xalos qilish, bir oyda 10 kilogrammgacha ozdirish, qisqa muddatda yashartirish kabi xizmatlar taklif etilmoqda. Albatta, bu tekin emas. Ularga ishonish kerakmi?

Xoh erkak bo‘lsin, xoh ayol — yosh-u qari doim go‘zal bo‘lish, ko‘rkam ko‘rinishni xohlaydi. Lekin buning uchun nimalar qilishimiz kerak? Yillar davomida yig‘ilgan yog‘ni juda tez va oson, uch kungina dori ichish evaziga eritish yoki juda katta vazndan hech qanday zo‘riqish va parhezsiz xalos bo‘lish mumkinmi? Albatta, mumkin. Faqat reklamada, haqiqiy hayotda emas. Ortiqcha vazndan juda tez xalos bo‘lish boshqa kasalliklarni keltirib chiqarishi, teri tarangligini yo‘qotib, osilib qolishi mumkin.

Semizlik bir kunlik muammo emas, yillar davomida shakllanadi. Bu holat ayrim endokrin kasalliklar belgisi bo‘lishi ham mumkin. Shu sababli chiroyli reklama qilingan ozdiruvchi dorilarga ishonish emas, shifokordan maslahat olish kerak. Eng asosiysi, shifokor kasallik belgisini davolamaydi. Sabablarni o‘rganib, bartaraf qilish yo‘lini izlaydi va siz bilan birga tanlaydi. Maslahat beradi. Unga rioya qilish esa sizning tanlovingiz.

Kishining o‘zini qiynab qilgan kuchli parhezidan keyin yo‘qotilgan vazn juda tez tiklanadi. Shuning uchun ham ovqatlanish tartibiga rioya qilish, tarkibini o‘zgartirish orqali ozish kerak, ovqat yemasdan emas, to‘g‘ri ovqatlanib va faol turmush tarzini yuritish orqali vazndan xalos bo‘lish foydali.

Jismoniy harakat faqat muntazam va yaxshi kayfiyat bilan bajarilgandagina samarali bo‘ladi. Shuning uchun turli ijtimoiy tarmoqlardan noma’lum dorilarni qimmat narxga sotib olib, ularning mo‘jizaviy xususiyatini kutish o‘rniga kundalik sport bilan shug‘ullanish va sog‘lom ovqatlanish tavsiya etiladi.

Tanaga tartib kerak

Kun bo‘yi o‘tirib ishlaydigan kasb egalari bor. Ular tushlik yoki boshqa muhim biror yumush bilan ko‘chaga chiqmasa, stolga deyarli mixlanib ishlaydi. Yoki yarim tungacha uxlamay, televizor va telefon ekranidan ko‘z uzmaydigan odamlarni bilamiz. Kun tartibi va ishni biologik rejim asosida tashkil qilmaslik ham salomatlik kushandasidir.

Koinotdagi tabiiy hodisalar muayyan tartib asosida takrorlanadi. Xususan, quyoshning har kuni ma’lum vaqtda chiqishi va botishi, yil fasllarining takrorlanishi tabiatdagi barcha harakat muayyan tartibga bo‘ysunishidan dalolat. Inson hayoti ham bundan mustasno emas. Misol uchun, odam tanasidagi faollik kunduzi ortadi, kechasi susayadi. Shu bois, ish kuni, dam olish vaqti to‘g‘ri rejalashtirilgan bo‘lishi shart.

Kishi kundalik hayotda jismoniy mashqlar, sport o‘yinlari, badanni chiniqtiruvchi muolajalar bilan ko‘proq shug‘ullansa, organizmdagi fiziologik, biologik jarayon faollashadi. Natijada kayfiyat ko‘tarilib, ishchanlik qobiliyati ortadi. Shubhasiz, bu salomatlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, ruhiy osoyishtalikni ta’minlash ham muhim. Tanamiz, ichki a’zolar faoliyati asab tizimiga bevosita daxldor. Ularning me’yoriy faoliyati ruhiy holatimiz, kayfiyatimizni belgilaydi. Shu ma’noda huda-behudaga jizzakilik qilmay, yaxshi narsalar haqida o‘ylab, oqilona fikrlash, yomonliklardan tiyilish, nafsga erk bermaslik, xushfe’l, xushmuomala bo‘lish sog‘liqni saqlash va mustahkamlash garovidir.

Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda ichkilikbozlik, kashandalik, giyohvandlik singari zararli odatlardan tiyilish qat’iy talab etiladi. Bu illatlarning sog‘liq va turmushga ziyoni bisyorligini alohida ta’kidlashga zarurat yo‘q. Zero, bunday kishilarning hayotga befarq, kuno‘targa yashovchi, o‘z sog‘lig‘i va kelajagini o‘ylamaydigan zaif odamlarga aylanib qolishi hayotda ko‘p kuzatilgan.

Bizga berilgan ne’mat va imkoniyatlardan oqilona foydalanib, yaxshi kayfiyatda, barqaror harakat bilan tanamizni chiniqtirib, sog‘lom hayot kechirishimiz ham mumkin. Agar sog‘lom turmush tarzini tanlasak, kun kelib odatga, odat esa voz kechilmas ehtiyojga aylanadi. Shunday ekan, qanday hayot kechirish — har kimning o‘z tanlovi.

Sport

ZOMINDAN PARIJGA ELTADIGAN YO‘L

Maktabda sport to‘garagi ochilgani haqidagi xabar bir zumda qishloqqa tarqaldi. Ertasi kuni tushdan so‘ng buvisi Ozodani qo‘lidan ushlab, to‘garakka olib keldi. Shu-shu buvisi qizchaning sportdagi birinchi muvaffaqiyatlariga sherik bo‘la boshladi.

Bir necha oylik mashg‘ulotlardan so‘ng mahorati ancha oshib qolgan Ozoda ustozi Muzaffar Hamroqulov ilk musobaqaga olib borishini aytganidan so‘ng yanada shiddatli shug‘ullana boshladi.

Kutilgan hayajonli daqiqalar yetib keldi. Ketma-ket yutuqlar uni finalga olib chiqdi. Ammo nisbatan tajribali raqibga imkoniyatni boy berib, kumush medal bilan taqdirlandi. Ilk musobaqadagi muvaffaqiyat Ozodani qanchalik ruhlantirgani o‘zigagina ma’lum. Ko‘ksidagi medalni mahkam ushlagancha uyiga kirib borarkan, dastlab buvisiga ko‘rsatib, maqtandi. Nabirasining yutug‘idan uning ko‘ngli tog‘dek yuksaldi. Shu kuni ularning uyida bayram bo‘ldi.

Shundan so‘ng Ozodaning sportdagi natijali yurishlari boshlandi. Avval tuman, so‘ng viloyat miqyosidagi musobaqalarda zafar quchdi. Respublika birinchiligidagi ilk ishtirokidayoq oltin medalni qo‘lga kiritdi.

Jizzaxning Zomin tumanidagi Yom qishlog‘ida tug‘ilib, shu joyda shug‘ullanib yurgan bu notanish qizning kutilmagan g‘alabasi ko‘pgina tengdosh chempionlarni dovdiratib qo‘ydi. Oddiygina, kamtarin sportchi qizni nazarga ilmaslikning oqibati qolganlarni dog‘da qoldirdi. Keyingi turnirlarda esa unga xavotir ila eng kuchli raqib sifatida qaraydigan bo‘lishdi. Oldinlari unchalik e’tibor qilmaydiganlar endi unga hurmat ko‘rsata boshladi.

U o‘rta maktabni bitirgunga qadar bir qancha musobaqalarda g‘alaba qozondi. Olti karra O‘zbekiston chempionligiga erishdi. Shundan so‘ng taekvondo bo‘yicha mamlakat terma jamoasi a’zoligiga qabul qilindi. Terma jamoa safida esa natijalari yanada yuksalib

bordi. Jumladan, Osiyo, jahon chempionatlarida ishtirok etib, sovrinli o‘rinlarni egallashiga yo‘l ochildi. 2018-yilda yoshlar o‘rtasida o‘tkazilgan jahon chempionatida kumush, 2019-yil tengqurlari orasidagi qit’a birinchiligida bronza medal sohibasiga aylandi. “Xanchjou-2022” Osiyo o‘yinlarida aralash jamoaviy dasturda bronza medalga ega bo‘ldi.

PARIS 2024

— Ilk bor sport to‘garagiga buvim yetaklab borganida hech bir ikkilanishsiz mashg‘ulotlarga kirishib ketganman, — deydi Ozoda Sobirjonova. — Hozir nega aynan taekvondo bilan shug‘ullanganim sababini ko‘p so‘rashadi. Rostini aytadigan bo‘lsam, o‘sha paytda qishlog‘imizda boshqa sport turidan to‘garak bo‘lmagan. Ustozimiz o‘zi tashabbus ko‘rsatib, maktab sport zalida qishloq bolalari uchun to‘garak ochgandi. Kattalar yordami bilan qiziqib ketganmiz. O‘sha ilk marta musobaqada finalda yutqazib qo‘ygan paytimda yosh bo‘lsam-da, o‘z oldimga katta maqsadlarni qo‘ygandim. Kelgusida jahon sport arenalarida yuksak marralarni zabt etib, yurtimiz sharafini munosib himoya qilaman, degandim, orzum amalga oshmoqda. To‘g‘ri, gohida g‘olib bo‘lamiz, ba’zida mag‘lubiyatga uchraymiz. Lekin hech qachon nolimaslikka, yoshlarga yaratilgan keng imkoniyatlardan faqat ezgu istaklar ro‘yobi uchun unumli foydalanishga intilib kelmoqdaman. Eng muhimi, har bir sportchi orzu qilgani kabi men ham o‘z maqsadim sari dadil odimlamoqdaman. Yaqinda Olimpiada yo‘llanmasini qo‘lga kiritdim. Albatta, oson bo‘lgani yo‘q. Buning uchun katta bosqichlarni bosib o‘tdim. Ayniqsa, kuchlilar orasidan saralanib chiqishning o‘zi bo‘lmadi. Bu murabbiylarning zahmatli mehnati va chin dildan oldinga intilganim hamda biz uchun shart-sharoitlar yaratib berilgani natijasi, deb bilaman. Buning uchun murabbiylarim oldida doim ta’zimdaman.

Joriy yil Xitoyning Tayan shahrida o‘tgan Osiyo turniridagi muvaffaqiyatli ishtiroki orqali taekvondo WT sporti bo‘yicha -67 kilogramm vazn toifasida “Parij-2024” yozgi Olimpiya o‘yinlari yo‘llanmasini qo‘lga kiritgan Ozoda Sobirjonova hozir milliy terma jamoa safida tajribali murabbiy Jasur Boyqo‘ziyev qo‘l ostida hozirlik ko‘rmoqda.

Fransiyada bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi Olimpiya o‘yinlari boshlanishiga sanoqli kunlar qoldi. Butun dunyo kutayotgan eng nufuzli musobaqa joriy yilning 26-iyulidan 11-avgustiga qadar bo‘lib o‘tadi. Ozodaxon kabi sportchilarimizga omad tilab qolamiz.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Munavvarqori insonni ulg‘aytiruvchi har ikki beshikning o‘rni va ahamiyati nihoyatda muhimligini ta’kidlaydi: “Avvalgi beshikda bolalarga onalari sut emizib, tanlarini o‘stururlar. Ikkinchi beshikda muallimlar ilm va odob o‘rgatub, aql va fikrlarini o‘stururlar. Bolalar uchun tanning salomatligi lozimdur. Ammo aql va fikrning salomatligi undin ortig‘roq lozimdur”.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 2-iyun, 108-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Millat fidoyilari

XX asr dunyo hamjamiyatida milliy istiqlol tafakkurining shakllanishi, mustaqil davlatchilik tamoyillarining ustuvorlik kasb etishi, yer sharining turli hududlarida mustamlakachilik tizimining barbod bo‘lishi natijasida xalqlarning milliy o‘zligini anglashi tom ma’noda yangi bosqichga ko‘tarilgani bilan insoniyat tarixida yorqin iz qoldirdi. Binobarin, milliy o‘zlikni anglash har bir xalq, millat uchun ularni buyuk maqsad yo‘lida birlashtiruvchi umummilliy harakat hisoblanadi.



Jadid o‘giti: “YURT OBRO‘SIN YOSHLAR SAQLAR”

Ra’no SAYFULLAYEVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g‘oyat og‘ir sharoitda ilm-ma’rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g‘oyalarini dadil ko‘tarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o‘rganishimiz lozim. Ularning ulug‘ maqsadlar yo‘lidagi mardona kurashi va fidoyiligi yangi O‘zbekistonni qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilishi zarur”.

Millat yoshlari uchun ibrat maktabi bo‘lish, xalqning iftixoriga aylanish oson emas. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniylarning har biri alohida ibrat bo‘stoni edi. Ular rahnamolik qilgan jadidlar ijtimoiy tuzumni butunlay o‘zgartirish, jamiyatni tubdan yangilash g‘oyasini ilgari surdi. Bu maqsadga ma’rifiy-ma’naviy islohotlar orqali erishish mumkinligiga ishondilar. Zero, milliy o‘zlik tuyg‘usi har bir ijodkor qalamga olgan davr qiyofasida, xalqning xarakter xususiyatlarida ko‘rinadi. Vatan o‘tmishi, buguni va kelajagi bilan bog‘liq masalalarda bu ko‘zga yanada yaqqolroq tashlanadi. Munavvarqori Abdurashidxonov o‘zbek xalqining shunday olovqalb farzandlaridan biri edi.

Professor Begali Qosimov “Milliy uyg‘onish“ kitobida Germaniyada tahsil olgan toliblardan birining “Yosh Turkiston” jurnalining 1934-yil 50-sonida chop etilgan maqolasidan quyidagi parchani keltiradi: “Tarixni shaxslar yaratadi. Tarix tarjimayi hollardan, iboratdir, deyiladi. Menimcha, biz ham Turkiston tarixining o‘tgan asr so‘ngidan boshlangan uyg‘onish davrini Munavvarqori yaratdi va Turkiston tarixining jadidchilar davri boshdan oxirigacha Munavvarqorining tarjimayi holidan iboratdir, desak yanglishmaymiz”.

Olim 1878-yilda Toshkentning Shayxontohur dahasi Darxon mahallasida ma’rifatli oilada tug‘ilgan. Otasi Abdurashidxon Sotiboldixon o‘g‘li mudarris, onasi Xosiyatxon otinoyi bo‘lib, el hurmatini qozongan, o‘z davrining ilg‘or fikrli ziyolilari edi. Bu xonadonda tez-tez kitobxonlik bo‘lib turardi. Xosiyatxon otin Sharq mumtoz adabiyotini yaxshi bilar, hazrat Alisher Navoiy g‘azallarini nihoyatda chiroyli o‘qirdi. Oila boshlig‘i erta vafot etib, onasi qo‘lida savod chiqargan bo‘lajak olim taniqli islomshunos Usmon domladan qiroat ilmini va tajvidni o‘rganadi. Keyinchalik Yunusxon madrasasida va Buxorodagi Mir Arab madrasasida tahsilni davom ettiradi.

Munavvarqori nihoyatda jo‘shqin qalb va ulkan jasorat sohibi edi. Toshkentda birinchilardan bo‘lib jadidlar safiga qo‘shiladi, vaqti kelib, uning peshvolaridan biriga aylanadi. Milliy taraqqiyotga erishish, barkamol insonni tarbiyalash oila va maktabdan boshlanishini yaxshi bilgan jadidlar yangi uslubdagi maktablar ochib, vatan tarixini, sharqona tarbiya usullarini, betakror qadriyatlarni o‘zida to‘liq qamrab olgan darsliklar yaratishni eng muhim, dolzarb masala, deb bildi. Munavvarqori 1901-yilda Toshkentda dastlabki “Usuli jadid” maktabini ochadi. Hamda barcha shu kabi ilm maskanlari uchun “Adibi avval”, “Adibi soniy” kabi alifbo va xrestomatiyalar, “Tavjid al-Qur’on” (“Qur’on qiroati”), “Yer yuzi” (“Geografiya”), “Usuli hisob”, “Tarixi qavm turk”, “Tarixi islomiya” singari qo‘llanmalar tuzadi. Jadid maktablarini ko‘paytirish, jamiyatda ularning nufuzini oshirishga yetakchilik qildi. U yaratgan darsliklar 1901-1917-yillar orasida qayta-qayta nashr etildi. Bu kitoblar har safar yashin tezligida tarqalar, ularni so‘rab keluvchilarning oxiri ko‘rinmasdi.

Jadidshunos olim Boybo‘ta Do‘stqorayevning fikricha, “Milliy zulmdan qutulish uchun ozodlik kurashi asosiy hodisa hisoblanadi. Erk, ozodlik, mustaqillikka feodal qoloqlik, jaholatdan qutulgandagina erishish mumkin bo‘lgan. Buning uchun jamiyatda mavjud tuzumni tubdan isloh qilish lozim bo‘lib, buni amalga oshiruvchilar qotib qolgan, daqqi kuchlarga, ya’ni “qadim” (eski)larga qarshi turuvchi “jadid” (yangi)lar sifatida maydonga keldi. Shu bois, jadidlar Misrda ham, Turkiyada ham, Turkistonda ham siyosiy oqim sifatida paydo bo‘ldi. To‘g‘ri, ularning shakllanganlik, taraqqiy topganlik darajasi bir xil emas edi. Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingan o‘lkalarda ham XIX asr oxiriga kelib milliy ozodlik harakati oxir-oqibat jadidlarni tarix sahnasiga chiqardi. Milliy istibdod zanjiriga tushgan xalq va elatlar qudratli imperiya changalidan faqat birlashib harakat qilgandagina qutulishlari mumkin edi. Buning uchun, eng avvalo, milliy ongni uyg‘otish, millatning o‘zligini anglab yetishuviga erishish lozim edi”.

Turkiston jadidlari ma’naviyat va ma’rifatga, ilm-fanga intilish millatning eng oliy maqsadiga aylanishini orzu qilardi. Bu maqsad yo‘lida ular o‘zlarini qurbon qilishga ham tayyor edi. Prezidentimiz XX asr boshida o‘zbek millatini nur va ziyoga burkash niyatida fidoyilik ko‘rsatgan ma’rifatparvar olimlar faoliyatiga yuksak baho berdi:

“Jadidlar tomonidan tashkil etilgan yangi usuldagi maktablar, teatr, kutubxona va muzeylar, gazeta va jurnallar, Turkiston farzandlarini chet ellarga o‘qishga yuborish maqsadida tuzilgan xayriya jamiyatlari xalqimizni necha asrlik g‘aflat uyqusidan uyg‘otdi, milliy ozodlik harakati uchun beqiyos kuch berdi”.

Munavvarqori badiiy ijod bilan bir qatorda vaqtli matbuotga ham juda qiziqdi. Olim tashabbuskorlaridan biri bo‘lgan va 1906-yilda dunyo yuzini ko‘rgan “Taraqqiy” gazetasi bilan o‘zbek matbuotining tamal toshi qo‘yildi, deyish mumkin. Xuddi shu yili olim rahnamoligida “Xurshid” gazetasi chop etila boshladi. Shuningdek, “Sadoyi Turkiston” (1914-1915-yillar)ning nashri uchun kurashgan ma’rifatparvarlar safida bo‘ldi. 1917-yili ham “Najot” gazetasini nashr ettirdi, ham Ahmad Zaki Valiy tomonidan chop etilgan “Kengash” jurnali tahririyatini boshqardi. U o‘z maqolalarida inson erkini poymol qiladigan ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy muammolarni dadillik bilan o‘rtaga tashladi.

Toshkentda mahalliy yoshlardan tuzilgan “Jadidlar to‘dasi”ning asoschilaridan biri ham Munavvarqori edi. Ular asosiy e’tiborni xalq farzandlarining ilm olishiga qaratdi. 1909-yilda maslakdosh ma’rifatparvar jadidlar bilan birga “Jamiyati xayriya” tuzadi, 1913-yilda “Turon” jamiyatini ta’sis etadi, “Maktab”, “Nashriyot” kabi shirkatlar ochadi. Ular nihoyatda og‘ir va murakkab bir tarixiy vaziyatda milliy istiqlol, milliy ma’naviyat uchun kurashni hayotlarining mazmuniga aylantirdi.

Asosiy maqsadni amalga oshirish uchun, eng avvalo, milliy ma’naviyatni, milliy qadriyatlarni asrash, ularni rivojlantirish va ommalashtirish nihoyatda muhim edi. Ular mamlakatni ozod, xalqni milliy zulm va qoloqlikdan xalos etishning yagona yo‘li ma’rifat, deb bildi va shu yo‘lda fidokorona kurashdi. Munavvarqori xalqning o‘z haq-huquqlarini, milliy o‘zligini anglashi, ozod va erkin taraqqiy qilish g‘oyalari shakllanishi uchun yoshlarning ilm olishi shart ekanligini qayta-qayta uqtirardi.

Olim jadidchilik yo‘nalishidagi barcha ilg‘or g‘oyalarga yetakchilik qildi. Turkistondagi teatrchilik ishlari yo‘lga qo‘yilishida Abdulla Avloniy bilan birga fidoyilik ko‘rsatdi. 1913-yilda yaratilgan, 73 banddan iborat “Turon” jamiyati nizomida ham teatr san’ati alohida ta’kidlangan. Keyinchalik jamiyat qoshida “Teatr havaskorlari truppasi” tashkil topgani millat ma’naviyatining yuksalishida yangi sahifa ochdi.

1918-yilning aprelida Munavvarqori Turkiston xalq dorilfununining asoschisi sifatida uning birinchi rektori etib saylanadi. Olimning sa’y-harakati bilan 1918-yil 2-iyunda dorilmuallimin ish boshlaydi, mazkur musulmon dorilfununi bo‘lajak davlat universiteti — hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti uchun ilmiy-pedagogik poydevor vazifasini o‘tadi. Unda ona tilidan Munavvarqori, Abdurauf Fitrat va Qayum Ramazon, arifmetika va nemis tilidan Kamol Shamsi, san’atdan Abdurahmon Ismoilov va boshqalar dars berdi.

Olimning dunyoqarashi, zakovati va yuksak tafakkuriga hamma havas qilardi. 1925-yilda Munavvarqori Qayum Ramazon va Shorasul Zunnun bilan hamkorlikda “O‘zbekcha til saboqligi” kitobini nashr ettirdi. Ayrim manbalarda bu darslik uch bo‘limdan, ba’zilarida to‘rt bo‘limdan iboratligi qayd etilgan.

Istiqlolgacha mavjud bo‘lgan o‘zbek tili grammatikasida so‘z turkumlari mustaqil va yordamchi so‘z turkumlari tarzida o‘rganilgan. Munavvarqori rahbarligida yaratilgan darslikda bunday bo‘linish yo‘q. “O‘z boshli so‘zlar” deb ajratilgan tizimga sifat, son, olmosh, fe’l kabi so‘z turkumlari va ularning turlari kiritilgan. Tavsiya etilgan ot va uning turlari hozirgi ona tilimizda ham bor. Otlarning yasalishida esa uning beshta turi berilishi farq qiladi. Sifat so‘z turkumida 6 tur keltirilgan va hozirgi darsliklarda ular alohida-alohida guruhlarga bo‘lingan holda berilgan. Son va olmosh so‘z turkumlarining 7 turi mavjud hamda ularning shu turlari grammatikamizda keltirilgan, ammo nomlanishi farqlanadi. Darslikda fe’l so‘z turkumiga quyidagicha ta’rif beradi: “Bir kishi yoki bir narsaning ishini yo holini bildiradigan so‘z “fe’l” deb ataladi”. “O‘zbekcha til saboqligi” kitobida fe’l kabi boshqa so‘z turkumlari haqidagi muhim ma’lumotlar ilmiy asoslangan. Shuningdek, kirishlar (kiritmalar), yo‘ldosh (juft) so‘zlar, qaytarma (takror) so‘zlar haqida ham misollar vositasida ma’lumot berilgan. Eng muhimi, ona tilimizning ravnaqi, sofligi uchun kurashgan, uning xazinasini boyitish uchun nihoyatda katta hissa qo‘shgan jadid bobolarimizning “O‘zbekcha til saboqligi” kitobida keltirilgan ma’lumotlar bugungi kunda ham o‘z qimmatini yo‘qotmagan.

Jadidlar matbuot, adabiyot va san’atni rivojlantirishga katta e’tibor berdi. Ularni maslakdosh sifatida birlashtirib turgan faoliyat zamirida milliy g‘urur, o‘zlikni anglash, o‘tmishni o‘rganish, madaniy an’analarni yosh avlod ongu shuuriga singdirish masalasi ustuvorlik qildi. Munavvarqori “Yalqovlik yovimizdir” she’rida yoshlarga shunday murojaat qiladi:

Qo‘zg‘olingiz, ey o‘rtoqlar!
Keldi bizga ishlash chog‘i,
Biz barchamiz yosh ishchimiz,
ishxonamiz — maktab bog‘i.
Turing, tezroq ish boshlaylik,
Yalqovlikni biz tashlaylik!
Ko‘kdan bulut yomg‘ir sochar,
suvlar oqar, o‘tlar o‘sar,
Qushlar uchar, oziq izlar,
butun dunyo tinmay ishlar.
Siz ham turing, ey o‘rtoqlar,
Yurt obro‘sin yoshlar saqlar.

Muallif jamiyatning barcha a’zolari bilan bahsga kirishadi. Yoshlardagi loqaydlik, yalqovlik uni iztirobga soladi. U mushohada va ta’sirchanlik qobiliyati o‘tkir ijodkor. Qaysi janrda yozmasin, uning satrlarida kurashchanlik g‘oyalari, erk, ozodlik, milliy o‘zlik, ilmparvarlik, bag‘rikenglik, yurtga sadoqat, milliy g‘urur tuyg‘ulari yog‘dulanib turadi. Yurt obro‘sini saqlaydigan, uning shuhratiga shuhrat qo‘shadigan yoshlarni go‘dakligidan, ya’ni beshikdan kitobga, ilmga muhabbatli qilib o‘stirish shart.

“Axloq darslari” turkumi ixcham hayotiy hikoyalardan iborat. “Maktab” hikoyasida muallif shunday deydi: “Bolalar tug‘ulub, olti-yetti kunlik bo‘lganlarida onalari beshikka solurlar. Kecha va kunduz tinmasdan harakat qilub, ko‘krak sutlari ila tarbiya qilurlar. Qachonki, bolalar olti-yetti yoshga yetsalar, maktabga berurlar. Maktabda muallim va xalfalar ko‘krak kuchlari ila tarbiya qilurlar. Bunga qaraganda, maktab bolalarning ikkinchi beshiklaridur”.

Bolalar juda intiluvchan bo‘ladi. Borliqdagi hamma narsa qiziqtiradi. Ularni bolalikning ikkinchi beshigi — maktabga shu qiziqish va intilish yetaklab boradi. Maktab bolaning tevarak-atrofdagi hayotni, tabiat hodisalarini va kishilar o‘rtasidagi munosabatlarni anglab olishiga, kitobni sevishiga, ertangi kunga ishonch bilan yashashiga, jamiyatda o‘zining munosib o‘rnini topishiga yordam berishi zarur.

Munavvarqori insonni ulg‘aytiruvchi har ikki beshikning o‘rni va ahamiyati nihoyatda muhimligini ta’kidlaydi: “Avvalgi beshikda bolalarga onalari sut emizib, tanlarini o‘stururlar. Ikkinchi beshikda muallimlar ilm va odob o‘rgatub, aql va fikrlarini o‘stururlar. Bolalar uchun tanning salomatligi lozimdur. Ammo aql va fikrning salomatligi undin ortig‘roq lozimdur”.

Milliy ongni uyg‘otish ham, milliy o‘zlik tuyg‘usini singdirish ham beshikdan boshlanadi. Oila — milliy qadriyatlarni asrab, avloddan-avlodga olib o‘tuvchi manba sifatida ham nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Oila qurish — insonlar orasidagi ijtimoiy munosabatdir. Oila va maktab hamkorligi ham hayotdagi turli ijtimoiy hodisalar hamda insoniyat turmushi va kelajagi bilan uyg‘unlikda rivojlanadi. Bu munosabatlarning davomiyligi, mustahkamligi jamiyat mustahkamligini belgilaydi. Zero, “Avvalgi beshikda sut va taom berub boqqan ota va ona qanday do‘st va aziz bo‘lsalar, ikkinchi beshikda ilm va odob o‘rgatub, tarbiya qilg‘an muallim va xalfalar ondin ortug‘roq do‘st va azizdurlar”.

Muallifning nazdida, tarbiyali bola “Ota va onasining, muallim va xalfalarning so‘zlaridan chiqmas. Har ishda insofni qo‘ldan bermas. Birovdan bir yaxshilik ko‘rsa, esidan chiqarmas. Qo‘lidan kelmagan ishni ustig‘a olmas. Ustig‘a olgan xizmatini qilmay qoldirmas. “Millat” degan so‘zni jonidan ortiq suyar”.

Insoniyatning ming-ming yillik tarixida xilma-xil harakatlar, ta’limot va turli siyosiy oqimlar mavjud bo‘lgan. Albatta, Turkiston ziyolilarining asosiy qismi usuli jadid maktablari ochilishining tarafdori edi. Jadidlar o‘lka istiqboli, millat kelajagi uchun bu maktablarning ahamiyati beqiyos ekanini xalqqa tushuntirishga, yoshlarni o‘z ortidan ergashtirishga harakat qildi. Professor Hamidulla Boltaboyev ta’kidlaganidek, “Turkiston tarixiga olamshumul o‘zgarishlarning muallifi sifatida kirgan jadidchilik nafaqat Markaziy Osiyoda, balki Yevroosiyoda ham ahamiyatli iz qoldirgani uchun u jahon afkor ilmiyasi tomonidan e’tibor bilan o‘rganilmoqda. Jadidchilik o‘z xalqini ozod va yurtini obod ko‘rish shiorini o‘rtaga qo‘yish barobarida uning oliy pirovard niyati xalqning o‘z shonli tarixi, madaniyati bilan jahon afkori umumiyasiga tanitishni istadi. Shuning uchun ham jahonni titratgan Temur qilichining zarblari va jahon adabiyotida yangi sahifa yaratgan Navoiy qalami jadidchilar uchun zamon timsoliga aylandi. O‘tmishni ideallashtirish orqasida yangi va yuksak jamiyat yaratib bo‘lmasligini yaxshi anglagan jadidchilar o‘tmish merosini o‘zlashtirish barobarida jahonning eng taraqqiy etgan millatlari sifatida o‘zini ko‘rishni istadi”.

Munavvarqoridan bebaho ma’naviy-ilmiy, estetik xazina meros bo‘lib qoldi. Uning yuksak iqtidori, tafakkuri va zakovati nafaqat qadim Turkistonga, balki yaqin Sharq mamlakatlariga ham ziyo sochgan. Jadid bobolarimiz erk va ozodlik, millat va vatanparvarlik, ma’naviy jasorat va matonat, xotin-qizlarning ilm egallashi kabi buyuk g‘oyalarni targ‘ib qildilar.

Darhaqiqat, ilmga da’vat har bir xalq, millat uchun ularni buyuk maqsad yo‘lida birlashtiruvchi umummilliy harakat hisoblanadi. Buyuk mutafakkir bobolarimiz yaratgan asarlar keyingi davrdagi darsliklar uchun asos bo‘lgan. Zero, o‘sha tahlikali, eng og‘ir damlarda ham o‘z millati, uning ma’rifati, ta’lim taraqqiyoti uchun jonfidolik bilan kurashgan Munavvarqori Abdurashidxonovning, uning jasur safdoshlarining fidoyiliklari, uvol ketgan umrlari, vatanga sadoqatlari o‘sib kelayotgan yosh avlod uchun ibrat maktabidir.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Munavvarqori kabi jadid olimlari millat yoshlarining ilmli, tafakkurli, yurt obro‘sini saqlaydigan darajada barkamol bo‘lib o‘sishini orzu qilgan. O‘z asarlarida uning bosh omillarini ilmiy jihatdan asoslab berdi, o‘zlaridan ulkan xazina qoldirdi. Istiqlol sharofati bilan tiklanib kelayotgan tariximiz, milliy an’analarimiz, milliy o‘zligimizni anglash ham ilmning jamiyatdagi nufuzi bilan belgilanadi.

Shu ma’noda davlatimiz rahbari imzolagan “Jadidlar merosi davlat muzeyini tashkil etish to‘g‘risida”gi qaror ma’rifatparvar jadidlarning Vatanimiz va jahon tarixidagi muhim o‘rni va ahamiyatini, milliy istiqlolimizning ma’naviy asoslarini yaratishdagi fidoyiliklarini, ibratli hayoti va faoliyatini, boy ilmiy-ijodiy merosini chuqur o‘rganish va faol targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 1895.
44065 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Avazbek Xudoyqulov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

O‘zA yakuni — 23:12 Topshirildi — 23:45